

O.A. SHODIYEV

# SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH (4-MODUL). YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**O.A. SHODIYEV**

**SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH  
(4-MODUL). YURIDIK SHAXSLARNI  
SOLIQQA TORTISH**

*(o'quv qo'llanma)*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent  
"METODIST NASHRIYOTI"  
2023**



UO'K: 336.22(075.8)

KBK: 65.261.4ya73

**Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul). Yuridik shaxslarni soliqqa tortish (o'quv qo'llanma): O'quv qo'llanma (barcha bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun) O.A.Shodiyev. – T.: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023. – 352 b.**

Mazkur o'quv qo'llanmada “Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul). Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining mazmuni, predmeti va vazifalari, yuridik shaxslar tushunchasi va ularni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning respublikamiz budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'implarni hisoblash, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi hamda soliq organlari tizimida yuridik shaxslarga oid axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid masalalar taqdimot ko'rinishida keltirilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari va iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari mavjud oliy ta'lim muassasalarining talabalari, magistrantlari, soliq organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar va ilmiy izlanuvchilarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

- Babayev Sh.B. – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti  
“Soliqlar va sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti,  
PhD
- Zaripov X.B. – Toshkent moliya instituti “Soliqlar va soliqqa  
tortish” kafedrasida dotsenti, PhD

ISBN 978-9910-03-053-6

© O.A.Shodiyev., 2023.

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023.

## KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar o'z navbatida respublikamizda yuritilayotgan soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishni taqazo etmoqda. Mazkur yo'nalishda ijobiy natijalarga erishishda avvalambor xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirish va shu asnoda mamlakatimizda biznes yuritish tartibini soddalashtirish hamda qulay investisiya muhitini ta'minlash lozim. Bundan tashqari respublikamizda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosatini yanada takomillashtirish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, tadbirkorlikni yanada rag'batlantirishni kuchaytirishga, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida uning rolini oshirishga, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.

Oxirgi yillarda respublikamizda mazkur yo'nalishda qilingan ishlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bu haqda davlatimiz rahbarining quyida bildirgan fikrlari o'rinlidir: "Kelgusi yilda "Soliqchi – ko'makchi" tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi. Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta lisenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi. Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz "oyoqqa turib olishlari" uchun ularga ko'mak berishni davom ettiramiz. Turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytiriladi. Shuningdek, 20 mingta tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman"\*.

Ma'lumki, ta'lim tizimida o'quvchi va talaba-yoshlarga soliqlar va soliqqa tortish tizimiga oid nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashda va sohaga tegishli amaliy ko'nikmalarini hosil qilishda yaratilayotgan o'quv va uslubiy adabiyotlarning o'rni beqiyosdir. Mazkur o'quv qo'llanma aynan ushbu jarayonni qamrab olgan holda, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'implarni hisoblash, soliq hisobotini tuzish va taqdim etish hamda hisoblangan soliqlar va yig'implarni to'lash

\* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.  
[//https://president.uz/uz/lists/view/4057](https://president.uz/uz/lists/view/4057)

tartibini o'rganishga qaratilgandir. O'quv qo'llanma bakalavriatning 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga mo'ljallangandir.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda internet tarmog'i ma'lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

Mazkur o'quv qo'llanmada yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayoni, jumladan ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar, soliq organlari tizimida yuridik shaxslarga oid zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishiga oid nazariy va amaliy masalalar o'n uchta mavzuga ajratilgan holda batafsil yoritib berilgan.

O'quv qo'llanmaning mavzulari ketma ketligi ikki qismga bo'lingan bo'lib, yuridik shaxslardan olinadigan bevosita va bilvosita soliqlar tarkibi qismida “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” modulining mazmuni, predmeti va metodi, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, ijtimoiy soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi bayon qilingan.

O'quv qo'llanmaning yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk va resurs soliqlari tarkibi qismida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan undiriladigan yig'imlar, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari hamda soliq organlari tizimida yuridik shaxslarga oid axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi masalalar yoritilgan.

O'quv qo'llanmada nazorat savollari, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlarga oid test savollari variantlari keltirilgan. Ushbu test savollari talabalarda yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni yanada mukammal o'zlashtirishlariga amaliy yordam beradi.

Muallif mazkur o'quv qo'llanmada mavjud kamchiliklarga fikrlar bildirilishiga umid qilgan holda o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

# 1 - MAVZU: “YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” MODULINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI



## REJA:

1. “Yuridik shaxslarni soliqa tortish” fanining maqsadi va vazifalari.
2. “Yuridik shaxslarni soliqa tortish” faning predmeti va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
3. O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi.
4. O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan soliqlar va yig‘imlarga tavsif.
5. Soliq munosabatlarning subyektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari
6. Soliq solish printsiplari va soliqlarning elementlari.

## Fanni o'qitishning zarurligi

**“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”** fanini o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarning ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi.

**“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”** fani soliq voqe'liklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiiq etish yo'llarini o'rgatadi.



## Fanning maqsadi

**“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”** fanining maqsadi – iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi va soliq qonunchiligi bilan yaqindan tanishtirish hamda talabalarda yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.





## OBJECTIVES

### Fanning vazifalari:

**“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani** quyidagi vazifalarga ega:

- yuridik shaxslarni soliqqa tortishda soliq ma'muriyatchiligi va soliq qonunchiligini tadqiq qilish;
- yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig'inlarning turlarini o'rganish;
- yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'inlarni hisoblash mexanizmi hamda byudjetga to'lash tartibini o'rganish;
- yuridik shaxslarni soliqqa tortishda xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy ta'lim qilish;
- yuridik shaxslarni soliqqa tortishning nazariy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini o'rganish.



Область исследования



Предмет исследования

### Fanning obyekti

**“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi hisoblanadi.**



Объект исследования Предмет исследования

## Fanning predmeti

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining **predmeti** bo‘lib yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar va yig‘inlarni davlat byudjetiga undirish jarayonida sodir bo‘ladigan soliqqa oid munosabatlar hisoblanadi. Shuningdek, fanning **predmeti** soliq voqe‘liklari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi.

Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (yuridik shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Demak, “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining **predmeti** soliq munosabatlarini (harakatini) o‘rganishdir.

## Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani

«Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari»

«Iqtisodchilar uchun matematika»

«Iqtisodiyot nazariyasi»

«Statistika»

«Ekonometrika»

«Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot»

«Moliyaviy va boshqaruv hisobi»

«Moliyaviy tahlil»

«Audit»



## Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

“Yuridik shaxslarni soliqa tortish” fauli

«Pul va banklar»

«Soliq ma'murchiligi»

«Soliq nazariyasi»

«Moliya»


«Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar»

«Investitsiya va innovatsiyalar»

«Bojxona ishi»

«Soliq tushumlari hisobi va prognozi»

«Chet mamlakatlar soliqlar tizimi»



SK. 16-madda. Soliqlar va yig'imlar  
(2020-yil 11-yanvardan kuchga kirgan)

*Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.*



### Sik. 17-madda. Soliqlarning va yig'imlarning turlari

*O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:*

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 5<sup>1</sup>) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.



### Sik. 16-madda. Soliqlar va yig'imlar (2020-yilgi tahrir)

**Yig'im** deganda budjet tizimiga *ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi*, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi.



### **SK. 17-modda. Soliqlarning va yig'imlarning turlari**

O'zbekiston Respublikasi hududida yig'imlar belgilanishi mumkin. Yig'imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni hamda, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi.



### **SK. 18-modda. Maxsus soliq rejimlari**

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi (to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar, maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchisi, advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlar) soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi;
- 4) O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi.






## SK. 18-modda. Maxsus soliq rejimlari

### Maxsus soliq rejimlari:

- ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni;
- pasaytirilgan soliq stavkalarini;
- boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

## SK. 19-modda. Soliq munosabatlarining subyektlari



## SK. 20-modda. Soliq to'lovchilar

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

**HAYOT**



## SK. 21-modda. Soliq to'lovchilarning huquqlari

**Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:**

- soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to'g'risida, soliq to'g'risidagi qonunchilikdagi o'zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek ularni to'ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;
- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish;
- ushbu Kodeksda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;

### SK. 21-modda. Soliq to'lovchilarning huquqlari

- soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o'z vaqtida hisobga o'tkazish yoki qaytarish;
- ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;
- soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;
- sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish va boshqalar;

### SK. 22-modda. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari

#### **Soliq to'lovchilar:**

- belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarishi va to'lashi;
- hujjatlarni ko'rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to'g'risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;
- tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraqa-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

### **S.K. 22-moddta. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari**

- soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

### **S.K. 23-moddta. Soliq agentlari**

Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish va budjet tizimiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi.



## SK. 25-modda. Vakolatlari organlar

### SOLIQ ORGANLARI

Soliq qo'mitasi

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo  
soliq inspeksiya

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va  
Toshkent shahar soliq boshqarmalari

Yumani (shaharlar) soliq inspeksiya

## SK. 25-modda. Vakolatlari organlar

### BOJXONA ORGANLARI

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi

Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha  
boshqarmalari

Toshkent - AEROY maxsus bojxona kompleksi

Bojxona postlari



## SIK 25-modda. Vakolatli organlar


**Quyidagilar vakolatli organlardir:**  
yig'implarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi *davlat organlari va tashkilotlar.*



## SIK 32-modda. Yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari

**Quyidagilar yuridik shaxslardir:**

- 1) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari);
- 2) chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar);
- 3) xalqaro tashkilotlar.




**SK. 33-moddasi. O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar**

**Quyidagi yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlaridir:**

- 1) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) O'zbekiston Respublikasining soliq solish masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalariga muvofiq ushbu xalqaro shartnomalarni qo'llash maqsadlari uchun O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etilgan chet el yuridik shaxslari;
- 3) haqiqatdagi boshqaruv joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan chet el yuridik shaxslari, agar O'zbekiston Respublikasining soliq masalalari bo'yicha xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

**SK. 33-moddasi. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar**



O'zbekiston Respublikasining *soliq rezidentlari bo'lmagan* yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e'tirof etiladi.

## SK. 69-modd. Soliqlarning elementlari


Soliq to'g'risidagi qonunchilikda soliqning barcha elementlari aniqlab qo'yilgan taqdirdagina ushbu *soliq belgilangan deb hisoblanadi.*

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish obykti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;
- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to'lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

## SK. 69-modd. Soliqlarning elementlari



## SK. 70-modda. Soliq solish obyektı

**Soliq solish obyektı** – mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi Qonunchilik soliq to'lovchida *soliq majburiyatini* vujudga keltiradi.



## SK. 71-modda. Soliq bazasi

**Soliq bazasi** – soliq solish obyektining *qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini* ifodalaydi.

НАЛОГОВАЯ БАЗА



### SIK. 72-modda. Soliq stavkasi

**Soliq stavkasi** – soliq bazasining o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.



### SIK. 73-modda. Soliq davri

**Soliq davri** deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

**Soliq davri** bir necha hisobot davrlaridan iborat bo‘lishi mumkin.

## SK. 74-modda. Soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi** soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

**Soliqni hisoblab chiqarish** soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda bu majburiyat *soliq organiga yoki soliq agentiga* yuklatilishi mumkin.

## SK. 75-modda. Soliq imtiyozlari

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan **soliqni to'lamaslik** yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati *soliq imtiyozlari* deb e'tirof etiladi.



## Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda solqlarning ahamiyati (ozlarda)

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil*
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz, jami	100	100	100	100	100
Bevosita soliqlar	28,4	31,6	31,8	31,7	31,8
Bilvosita soliqlar	45,8	45,4	42,5	36,6	38,0
Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	16,5	16,2	13,2	11,3	11,4
Qo'shimcha foyda solig'i	0,1	-	-	-	-
Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar	9,2	6,8	12,5	20,4	18,8

\*prognoz ko'rsatkichlar

## SK. 81-84 maddalar Soliq hisoboti

Soliq to'lovchining har bir soliq turi yoki to'langan daromadlar bo'yicha *hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini*, shuningdek hisob-kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir *ilovalarni* o'z ichiga oladigan, soliq to'lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlari **soliq hisobotidir**.






## SK. 81-84 moddalar Soliq hisoboti

Soliq to'lovchilar va soliq agentlari soliq organlariga *soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni* ushbu hisobot taqdim etilgan yildan keyin kamida besh yil saqlashi shart.



## SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISHI SK. 85-modda. Soliq majburiyati

Soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliq-larni va yig'implarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.



### SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH

SK. 86-moddasi. Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati

**Soliq majburiyati** ushbu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni *soat yigirma to'rtga qadar* bajarilishi kerak.

Agar **soliq majburiyatini** bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelsa, undan keyingi *birinchi ish kuni* muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Soliq to'lovchi **soliq majburiyatini** *muddatidan oldin* bajarishga haqli.



### SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH

SK. 87-moddasi. Soliq majburiyatining tugatilishi


**Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:**

byudjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u tugatilganda

byudjet tizimi bilan barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin u qayta tashkil etilganda

**SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH**  
SK. 88-moddâ. Soliq majburiyati bo'yicha  
da'vo qilish muddatlari


Soliq majburiyati  
bo'yicha da'vo  
qilish muddati




soliq majburiyati  
aniqlanadigan soliq davri  
tugaganidan keyin besh  
yilni tashkil etadi.

**SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH**  
SK. 89-moddâ. Soliqlar va yig'imlarni to'lash

Soliqni to'lash, agar Soliq kodeksida  
boshqacha qoida nazarda tutilmagan  
bo'lsa, **milliy valyutada** amalga  
oshiriladi.



## SK. 7-moddada Soliқ solish prinsiplari



## SK. 8-moddada Majburiylik prinsipi




Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan *soliqlar* va unda nazarda tutilgan *yig'implarni to'lashi shart*.

Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

**SK. 9-modda. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi**

Soliqlarni va yig'implarni belgilovchi *soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari*, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'implarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.



**SK. 9-modda. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipi**

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonunchilikni to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart.

Bunda *soliq organlari* soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, *soliq to'lovchilar* esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.



## SK 10-modda. Adolatlilik prinsipi

**Soliqlar va yig'imglar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.**

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

## SK 11-modda. Soliq tizimining yagonaligi prinsipi

**Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.**





## SK. 12-modda. Oshkoralik prinsipi



**Soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e'lon qilinishi shart.**

Rasman e'lon qilinmagan soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida *huruqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi.*

## SK. 13-modda. Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi

**Soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.**





#### DIQQAT SAVOL

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

1. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanining maqsadi va vazifalarini izohlang.
2. "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" faning predmeti va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini izohlang.
3. "Yuridik shaxs" tushunchasini izohlang. Ularni soliqqa tortishning qanday tartiblarini bilasiz?
4. Soliqlar va yig'imlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliq va yig'imlar deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlar va yig'imlarga tavsif bering.
7. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplarini izohlang.
8. Soliq solishning majburiyligi prinsipini izohlang.
9. Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi prinsipini izohlang.
10. Soliq solishning adolatliligi prinsipini izohlang.
11. Soliq tizimining yagonaligi prinsipini izohlang.




#### DIQQAT SAVOL

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

12. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipini izohlang.
13. Soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi prinsipini izohlang.
14. Maxsus soliq rejimlarini izohlang.
15. Soliq munosabatlarining subyektlari, ularning huquqlari va majburiyatlarini izohlang.
16. Soliqlarning elementlariga tavsif bering.
17. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqning ahamiyatini izohlang.
18. Soliq majburiyati va uni bajarish tartibi hamda muddati haqida fikringizni bayon eting.
19. Soliq hisobotini tuzish va uni taqdim etish tartibi haqida fikringizni bayon eting.
20. Soliq munosabatlarining subyektlari bo'lgan vakolatli organlar haqida nimalarni bilasiz.
21. Soliq munosabatlarining subyektlari bo'lgan soliq agentlari va soliq to'lovchining vakillari haqida nimalarni bilasiz?
22. Soliq organlarining huquqlari va majburiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

## 2 - MAVZU: FOYDA SOLIG‘I



### REJA:

1. Foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati, joriy qilinishi va solig tizimida ahamiyati.
2. Foyda solig‘ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli.
3. Soliq to‘lovchilar, solig solish obyekti va soliq bazasi. Jami daromadlar tarkibi va xarajatlarni guruhlash.
4. Soliq stavkalari.
5. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi.
6. Soliqni budjetga to‘lash tartibi.

Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy  
qilinishi va soliq tizimida ahamiyati



Iqtisodiy kategoriyalar ichida xo'jalik subyektlarining moliyaviy natijalarini aniqlovchi *uchta* ko'rsatkich mavjud bo'lib, ular: *tushum, daromad va foydaga* bo'linadi.

Ushbu iqtisodiy ko'rsatkichlar bir-biridan tuzulmaviy shakllanishi va muayyan alomatlari bilan farqlanib turadi.

---

Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy  
qilinishi va soliq tizimida ahamiyati



**Foyda** bu – ishlab tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining *so'nggi moliyaviy natijasi* bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy *moliyaviy manbalaridan* biri, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining *asosiy maqsadi* bo'lib hisoblanadi.

---

Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy  
qilinishi va soliq tizimida ahamiyati



Foydadan tartib-qoidaga muvofiq, *foйда solig'i* olingandan so'ng xo'jalik subyekti ixtiyorida **sof foyda** vujudga kelib, uni korxonaga o'zining imkoniyati va xohishiga binoan taqsimlaydi.

Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy  
qilinishi va soliq tizimida ahamiyati



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi NIZOM bandlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

**Xo'jalik yurituvchi  
subyekt faoliyatining  
moliyaviy natijalari:**

$$\mathbf{YaF = SST - IT; (1)}$$

*bunda,*

- YaF – yalpi foyda;
- ST – sotishdan olingan sof tushum;
- IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

**Xo'jalik yurituvchi  
subyekt faoliyatining  
moliyaviy natijalari:**

$$\mathbf{AFF = YaF - DX + BD - BZ; (2)}$$

*bunda,*

- AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;
- DX — davr xarajatlari;
- BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;
- BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.



**Xo'jalik yurituvchi  
subyekt faoliyatining  
moliyaviy natijalari:**

$$UF = AFF + MD - MX; \quad (3)$$

*bunda,*


- UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;
- MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

**Xo'jalik yurituvchi  
subyekt faoliyatining  
moliyaviy natijalari:**


$$STF = UF + FP - FZ; \quad (4)$$

*bunda,*

- STF — soliq to'langungacha olingan foyda;
- FP — favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;
- FZ — favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.




**Xo'jalik yurituvchi  
subyekt faoliyatining  
moliyaviy natijalari:**



$$SF = STF - DS - BS; \quad (5)$$

*bunda,*

- SF — sof foyda;
- DS — foydadan to'lanadigan soliq;
- BS — boshqa soliqlar va to'lovlar.



**Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy  
qilinishi va soliq tizimida ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida foyda solig'i ilk bor 1991-yilda "*foyda*" solig'i ko'rinishida joriy etilgan. Ammo 1992-moliya yilidan boshlab tijorat asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi xo'jalik subyektlari "*daromad*" solig'ini to'lashga o'tdilar. Bunday keskin o'zgarishning o'ziga xos obyektiv sabablari bor edi.



O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish **pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o'sishini cheklash** uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi.

Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum hajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda katta miqdorda ishchilarga ish haqi to'lashga majbur bo'ldilar.

Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida faoliyatlarini foyda bilan yakunlamasada, daromad solig'ini ish haqi jang'armasidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar.

### **Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, joriy qilinishi va soliq tizimida ahamiyati**



*1995-yil 1-yanvardan boshlab* soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning **foydasidan olinadigan soliq joriy etildi.**

Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, tamosha-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngilochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar) uchun **daromad solig'i** to'lash tartibi saqlab qolindi.



1996-yildan boshlab *savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga* soddalashtirilgan **“yalpi daromad”** va **“mol-mulk”** solig‘ini to‘lash joriy etilishi munosabati bilan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod bo‘ldilar.

1998-yildan *mikrofirma va kichik korxonalar* **“soddalashtirilgan yagona soliq”** to‘lash mexanizminiga o‘tish munosabati bilan foyda solig‘ini to‘lashni ixtiyoriy ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

1999-yildan *qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari* soddalashtirilgan **“yagona yer solig‘i”ni** to‘lashga o‘tishi munosabati bilan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod bo‘ldilar.

### Foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati, joriy qilinishi va solig tizimida ahamiyati



2007-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, tamosha-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko‘ngilochar o‘yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar ham **foyda solig‘i** to‘lashga o‘tkazildi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i **“foyda solig‘i”** deb nomlandi.

## Foyda solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli



Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra foyda solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.


## Foyda solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi (foizda)



<u>Ko'rsatkichlar</u>	<u>2019 yil</u>	<u>2020 yil</u>	<u>2021 yil</u>	<u>2022 yil</u>	<u>2023 yil (reja)</u>
<u>Foyda solig'i</u>	15.6	17.2	18.9	19.3	18.4



## Foyda solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'ining o'zgarish dinamikasi (foizda)



→ Foyda solig'i

### Solig to'lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 294-moddasiga muvofiq quyidagilar foyda solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi:

- 1 • O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2 • O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;
- 3 • O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;



## Soliq to'lovchilar, soliq solish obyektini va soliq bazasi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 294-moddasiga muvofiq quyidagilar foyda solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi:

- 4 • soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslar:
- 5 • soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan yoki o'z ixtiyori bilan foyda solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar:
- 6 • oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

## Soliq to'lovchilar, soliq solish obyektini va soliq bazasi

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aylanmadan soliq to'lovchi shaxslar soliq to'lovchilar hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni **mustaqil** ravishda amalga oshiradilar.

Soliq kodeksining 295-moddasiga muvofiq *soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda* foyda solig'i bo'yicha **soliq solish obyektı** hisoblanadi.

**Quyidagilar foyda deb e'tirof etiladi:**

1) yuridik shaxs uchun – *jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq*;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun – doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan *jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq*;

3) norezident uchun – O'zbekiston Respublikasidagi *manbalardan olingan daromadlar*;

**Soliq to'lovchilar, soliq solish obyektı va soliq bazasi**

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – *jami daromad va xarajalar o'rtasidagi farq;*

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun — *birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko'rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq.*

**Soliq to'lovchilar, soliq solish obyektı va soliq bazasi**

**Soliq kodeksining  
296-moddasiga muvofiq soliq  
solinishi lozim bo'lgan foyda  
summasi soliq bazasi  
hisoblanadi.**

### Soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Soliq bazasi, agar Soliq kodeksining 48- va 50-boblarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq davri boshlanganidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko'rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda kamaytiradi (SK. 333-modda).

Soliq bazasiga Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda tuzatishlar kiritiladi (SK. 332-modda).

### Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegitmalar

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq, jami daromad yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

## Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar

### Jami daromadga quyidagi daromadlar kiradi (297-modda):

- 1 • tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2 • kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad;
- 3 • sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi.

## Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar

- 4 • REPO operatsiyalari bo'yicha daromad;
- 5 • amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;
- 6 • moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;
- 7 • mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasuo;

## Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirimalar

8

- royalti:

9

- tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar):

10

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad:

11

- qonunchilikda belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad:

## Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirimalar

12

- ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;

13

- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

14

- qarzdor tomonidan e'tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar;

15

- dividendlar va foizlar;

**SK. 304-modda. Soliq solishda hisobga  
olinmaydigan daromadlar**

**Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:**

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa tarzida olingan mablag'lar;

2) ishtirokchilar tarkibidan chiqish chog'ida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish chog'ida olingan mablag'lar;

3) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

**SK. 304-modda. Soliq solishda hisobga  
olinmaydigan daromadlar**

**Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:**

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov (bo'nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar;

5) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonini (sug'urta summasi) tarzida olingan mablag'lar;

6) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar;



## **SK. 44-bob. Xarajatlar. 305-modd. Umumiy qoidalar**

Soliq kodeksiga muvofiq xarajatlar **chegiriladigan va chegirilmaydigan** xarajatlarga bo'linadi.

Soliq kodeksiga muvofiq, yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, *bundan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.*

Soliq to'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko'rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari **xarajatlar** deb e'tirof etiladi.

**Asoslangan xarajatlar** deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

## **SK. 317-modd. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar**

Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq, soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1 • qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan **moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan**, ular mavjud bo'lmaganda esa, soliq to'lovchi tomonidan belgilangan normalardan **ortiqcha tovarlar yo'qolishi**;

2 • umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish **xarajatlari**, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun **kommunal xizmatlarning qiymatini to'lash**;

## SK. 317-modda. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar

Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq, soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

3

- soliq to'lovchining Soliq kodeksining 376-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari (bundan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarining 0.5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda o'z xodimlariga va ularning yaqin qarindoshlariga ommaviy-madaniy hamda konsert-tomosha tadbirlariga borishi uchun chiptalar xarid qilishga doir xarajatlar mustasno);

## SK. 317-modda. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar

4

- dala (safar) ta'minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha to'lovlar;

5

- pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;


6

- Soliq kodeksi 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining to'rtinchi va beshinchi xatboshikarida ko'rsatilgan moddiy yordam;

## **SR 317-moddasi. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar**



- **xayriya yordamini amalga oshirish uchun xarajatlar**, bundan metsenatlik ko'magini ko'rsatish, o'quv-tarbiya muassasalariga yoki yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga moddiy yordam ko'rsatish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, shuningdek Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag'lar mustasno;



- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

## **SR 317-moddasi. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar**



- aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur sunmalarning o'rmini qoplash imkoni bo'lmagan taqdirda ko'rilgan zararlar;



- boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;



- soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar;

## SK 317-modda. Chegirib tashlanmaydigan zarafatlar

12


- budget tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;

13

- muddati o'tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzar) bo'yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

14

- xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari;



2000 – 2023-yillarda foyda solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasi (foizda)

## Foyda solig'i stavkalari

**Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq foyda solig'i stavkalari  
2023-yil uchun quyidagi miqdorlarda belgilangan:**

T/p	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to'lovchilar: - polietilen granular ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; - faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha Soliq kodeksi 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalarini	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0
5	Oo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0

## SIK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8	Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	7,5
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1-11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

### SK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

Jadvalning 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar faoliyatning barcha turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkasini qo'llaydi.

Jadvalning 3-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo'llashga haqlidir.

### SK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

Jadvalning 8-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar, agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakuylari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli.

Qo'shimcha manbalardan daromad oluvchi budjet tashkilotlari, bosharti bo'shatilayotgan mablag'lardan qonunchilikda belgilangan tartibda budjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o'z xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2024-yilning 1-yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llaydi.



## SK. 357-modda. Foyda solig'i stavkalarini



O'zida ishlovchilarning umumiy o'rtacha yillik sonining **3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.**

### Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanilganda soliq imtuyozining qo'llanilishi

1.	Xodimlarning umumiy soni, kishi	60
	shu jumladan <u>nogironligi bo'lgan shaxslar</u> , kishi	15
	Xodimlarning umumiy sonida <u>nogironligi bo'lgan shaxslar salmog'i</u> , foizda	25
	Ishga joylashtirilgan <u>nogironligi bo'lgan shaxslarning belgilangan me'yori</u> , foizda	3
	Belgilangan me'yordan oshish, foizda (25 - 3 = 22)	22
2.	Foyda solig'i stavkasi, foizda	15
3.	Imtiyozni hisobga olganda soliq stavkasi, foizda $15 - ((15 \times 22) / 100)$	11.7



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI



### «TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI YANADA KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA»

2022-yil 30-sentabr, PF-228-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, 2022-yil 1-noyabrdan boshlab «eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llaniladi».

### SK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

Jadvalning 6-bandida nazarda tutilgan **0 darajali foiz** miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar qismida qo'llaydi, bundan faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar mustasno.

## SK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, **0 darajali foiz** miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, qo'llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, **0 darajali foiz** miqdoridagi soliq stavkasi soliq to'lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e'tiboran **bir yuz sakson** kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo'llanilmaydi.

## SK. 337-modda. Foyda solig'i stavkalari

Jadvalning 6-bandi qoidalari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- 1) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xomashyo tovarlar eksportiga (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni*);
- 2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;
- 3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo'yicha xizmatlarga.

## **SK. 338-modda. Soliq davri Hisobot davri**

### **Soliq kodeksining 338-moddasiga muvofiq:**

- **kalendar yil – soliq davri,**
- **yilning choragi – hisobot davridir.**

## **SK. 339-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Soliq hisoboti barcha soliq to'lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o'tganidan keyin soliq bo'yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.



**SK. 339-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

**Soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:**

hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning **yigirmanchi** kundan kechiktirmay

soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davri o'tgandan keyingi yilning **1 martidan** kechiktirmay

**SK. 340-modda. Soliqni to'lash tartibi**

**Soliq to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:**

hisobot davri yakunlari bo'yicha — hisobot davridan keyingi oyning **yigirmanchi** kundan kechiktirmay

soliq davri yakunlari bo'yicha — soliq davri o'tgandan keyingi yilning **1 martidan** kechiktirmay

## SK. 340-modda. Soliqni to'lash tartibi

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda **o'n milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar** hisoblab chiqarilgan har *oylik bo'nak to'lovlarini* hisobot davri har bir oyining **23-kunidan** kechiktirmay to'laydi.

## SK. 340-modda. Soliqni to'lash tartibi

Har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish **soliq organlari tomonidan** amalga oshiriladi.

Bunda soliq to'lovchi kelgusi chorak birinchi oyining **15 sanasiga qadar** joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, *bo'nak to'lovlari summasi to'g'risida soliq organlariga ma'lumotnoma* taqdim etish huquqiga ega.

**SK. 342-modda. Soliqni hisobga olish**

Chet davlatning qonunchiligiga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq **haqiqatda to'langan foyda solig'ining summasi** yoki ushbu chet davlatda olingan daromadlardan olinadigan aynan **o'xshash turdagi soliq** O'zbekiston Respublikasida foyda solig'ini to'lash hisobidan soliq to'lovchida *belgilangan tartibda va miqdorlarda hisobga olinishi lozim.*

**SK. 342-modda. Soliqni hisobga olish**

**Hisobga olinadigan summaning miqdori** soliq to'lovchi ko'rsatilgan daromad olinishi lozim bo'lgan (olingan) soliq davri uchun to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i summasidan *oshib ketishi mumkin emas.*



#### **DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Foyda solig'i O'zbekistonda qachon joriy qilingan. Uning shakllanish bosqichlarini izohlang.
2. Tushum, daromad va foyda kabi tushunchalarga izoh bering.
3. Foyda solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini izohlang.
4. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
5. Rezident va norezidentlar kim va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
6. Foyda solig'ining soliq solish obyektini izohlang.
7. Foyda solig'ining soliq solinadigan bazasi qanday tartibda aniqlanadi?
8. Foyda solig'ini hisoblashda jami daromad va uning tarkibini izohlang.
9. Foyda solig'ini solishda hisobga olinmaydigan daromadlar tarkibini izohlang.
10. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning qanday ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi?
11. Foyda solig'ini hisoblashda chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlar tarkibini izohlang.



#### **DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

12. Foyda solig'ini hisoblashda soliq bazasiga tuzatish kiritish tartibini izohlang.
13. Foyda solig'ini hisoblashda zararlarni kelgusiga o'tkazish tartibini izohlang.
14. Foyda solig'ining soliq stavkalari miqdorlarini izohlang.
15. Foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
16. Foyda solig'i bo'yicha soliq davri, hisobot davri hamda soliqni hisoblab chiqarish tartibini izohlang.
17. Foyda solig'i bo'yicha soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibini izohlang.
18. Foyda solig'ini hisoblashda chet davlatning qonunchiligiga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq haqiqatda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish tartibini izohlang.
19. O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga to'lanadigan dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
20. O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlariga to'lanadigan foizlar tarzidagi daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
21. Foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lash tartibini tushuntiring.



**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA  
TORTISH” FANI**

**3 - MAVZU:  
AYLANMADAN  
OLINADIGAN SOLIQ**



**Davlat  
Soliq  
Komissiyasi**



---

**REJA:**

1. Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar.
  2. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.
  3. Aylanmadan olinadigan soliqning obykti va soliq solish bazasi.
  4. Aylanmadan olinadigan soliqning stavkalari.
  5. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
-



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 27-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 1997-yilgi davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-1565-son farmoniga asosan 1997-yildan boshlab «amaldagi soliqlar o'miga mahsulotni sotish (ishlar, xizmatlarni bajarish)dan tushgan daromadning 25 foiziga qadar (5 %; 10 %) miqdordagi yagona soliqni joriy etish yo'li bilan barcha mulkchilik shaklidagi kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning *tabaqalashtirilgan soddalashtirilgan tizimi*» joriy etildi.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash o'miga yagona soliq to'lashni nazarda tutishi belgilandi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi kichik korxonalar uchun boj, import qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i, davlat boji, litsenziya yig'implari to'lash, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar ajratishning amaldagi tartibi saqlab qolindi.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «*Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*»gi PF-3620-son farmoniga muvofiq 2005-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston soliq tizimi amaliyotida kichik biznes subyektlarining ba'zi toifalari uchun **yagona soliq to'lovi** joriy qilindi.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

**Yagona soliq to'lovi quyidagi to'lovlar o'rniga joriy etildi:**  
(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli Farmoni)

Yagona soliq

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar




## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

Unga asosan 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan 4 ta to'lov o'rninga **yagona soliq to'lovi** joriy etilishi kichik biznes zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar





## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan *yagona soliq to'lovi o'rniga aylanmadan olinadigan soliq* joriy etildi.

Aylanmadan olinadigan soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra **bevosita soliq** bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 461–470 moddalariga muvofiq undiriladi.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1.

soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi **1 milliard so'mdan oshmagan** O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2.

soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi **100 million so'mdan oshgan, lekin 1 milliard so'mgacha bo'lgan** yakka tartibdagi tadbirkorlar.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

**Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

1.

• O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2.

• aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3.

• yuridik shaxslar — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, bosharti ularda 25 gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

**Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

4.

• benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5.

• lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6.

• oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

### Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

7.

- bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8.

- markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.



## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

### Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

9.

- alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shaxobchalariga;

10.

- bozorlarga va savdo komplekslariga.





## Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati va soliqni to'lovchilar

**Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

11.

• soliq maslahatchilarining tashkilotlariga;

12.

• auditorlik tashkilotlariga;

13.

• notijorat tashkilotlariga, shu jumladan budget tashkilotlariga;

### **SK. 462-modda. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi **1 milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.**

Ushbu soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli.

**SK. 462-modda. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan *oydan keyingi oyning 1-sanasi*dan boshlab **ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.**

**SK. 462-modda. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari *1 milliard so'mdan oshmagan bo'lsa*, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida *12 oydan keyin* qayta o'tishga haqli.

## Soliq solish obyekti va soliq bazasi

Soliq kodeksining 463-moddasiga muvofiq *jami daromad soliq solish obyektidir*, bundan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar (*Soliq kodeksi 304-moddasi "Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar"*) mustasno.

## Soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:**

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

## Soliq solish obyektii va soliq bazasi

**Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:**

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun **haq summasi;**

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarning (xizmatlarning) **tannarxi yoki ularni olish bahosi** (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

## Soliq solish obyektii va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 464-moddasiga ko'ra, jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:**

1

• O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2

• soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3

• qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

## Soliq solish obyektı va soliq bazasi

Soliq kodeksining 464-moddasiga ko'ra, jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

5

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

6

- tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromadlar.

## SOLIQ STAVKALARI

Aylanmadan olinadigan **soliq stavkalari**  
Soliq kodeksining 467-moddasida  
keltirilgan bo'lib, quyidagicha  
tabaqalashtirilgan holda belgilangan:

### SOLIQ STAVKALARI (SK. 467-modda)

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar, bundan 2-6-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar	
	joylashgan joyiga qarab:	
2.1.	➤ aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	➤ boshqa aholi punktlarida	2
	➤ borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
2.2.	joylashgan joyidan qat'i nazar, tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo'yicha	4

### SOLIQ STAVKALARI (SK. 467-modda)

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
3.	➤ aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	➤ boshqa aholi punktlarida	2
	➤ borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
4.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar	tovar aylanmasining 4 yoki yalpi daromadning 25

## SOLIQ STAVKALARI (SK. 467-modda)

T/r	Solliq to'lovchilar	Solliq stavkalari, foizlarda
5.	Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi solliq to'lovchilar	2
6.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" assotsiatsiyasi bo'lgan, umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va 1941-1945-yillardagi mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va 1941-1945-yillardagi mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan solliq to'lovchilar	0

### AHOLI PUNKTLARINI BORISH QIYIN BO'LGAN VA TOG'LI HUDUDLAR TARKIBIGA KIRITISH TARTIBI TO'G'RISIDA YO'RIQNOMA

*(Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 11-noyabrda 1868-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)*

#### Borish qiyin bo'lgan tumanlar ro'yxati:

№	Tumanlar nomi
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	
1.	Qonliko'l
2.	Muynog
3.	Shumanay
<b>Jizzax viloyati</b>	
1.	Forish
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	
1.	Dehqonobod
<b>Navoiy viloyati</b>	
1.	Tomdi
2.	Uchquduq
<b>Farg'ona viloyati</b>	
1.	So'x



**AHOLI PUNKTLARINI BORISH QIYIN BO'LGAN VA TOG'LI H U D U D L A R  
TARKIBIGA KIRITISH TARTIBI TO'G'RISIDA YO'RIQNOMA**

*(Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 11-noyabrda 1868-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)*

**Dengiz sathidan 1000 metr balandlikdagi zonalar mavjud  
tumanlar ro'yxati:**

<b>№</b>	<b>Tumanlar nomi</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	
1.	Baxmal
2.	G'allaorol
3.	Zomin
4.	Yangiobod
<b>Namangan viloyati</b>	
1.	Pop
2.	Yangiqo'rg'on
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	
1.	Yakkabog'
2.	Qamashi
3.	Kitob
4.	Shahrisabz

**AHOLI PUNKTLARINI BORISH QIYIN BO'LGAN VA TOG'LI H U D U D L A R  
TARKIBIGA KIRITISH TARTIBI TO'G'RISIDA YO'RIQNOMA**

*(Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 11-noyabrda 1868-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)*

**Dengiz sathidan 1000 metr balandlikdagi zonalar mavjud  
tumanlar ro'yxati:**

<b>№</b>	<b>Tumanlar nomi</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	
1.	Qo'shrabot
2.	Urgut
<b>Surxondaryo viloyati</b>	
1.	Denov
2.	Boysun
3.	Oltinsoy
4.	Qumqo'rg'on
5.	Sanosiy
6.	Uzun
7.	Sherobod
<b>Toshkent viloyati</b>	
1.	Ohangaron
2.	Bo'stoliq
<b>Farg'ona viloyati</b>	
1.	Farg'ona



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING FARMONI**



**«RESPUBLIKA HÜDUDLARINI TOIFALARGA AJRATISH  
VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING  
TABAQALASHTIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH  
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA»**

*2022-yil 30-dekabr, PF-287-son*

2. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilsin:
- a) 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (*yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno*):
- aylanmadan olinadigan soliqni 1 foiz soliq stavkasi bo'yicha to'laydi;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING FARMONI**




**«RESPUBLIKA HÜDUDLARINI TOIFALARGA AJRATISH  
VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING  
TABAQALASHTIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-  
TADBIRLARI TO'G'RSIDA»**

*2022-yil 30-dekabr, PF-287-son*

2. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilsin:
- v) 4-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (*yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno*) uchun aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilanadi. Bunda, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mazkur soliq bo'yicha pasaytirilgan (0% – 1% – 2% – 3%) soliq stavkalari saqlab qolinadi.

**SK. 469-modda. Soliq davri. Hisobot davri**

Soliq kodeksining 469-moddasiga muvofiq:



**SK. 470-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

**Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:**





**- hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oying o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;**



**- soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay.**

**SK. 470-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

**Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliqni to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:**

-  - *hisobot davri yakunlari bo'yicha* – hisobot davridan keyingi oyning o'n kundan kechiktirmay;
-  - *soliq davri yakunlari bo'yicha* -- soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay.


Soliq kodeksining 467-moddasiga muvofiq, soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan summada soliq to'lashni tanlashga haqli.

Soliqni qat'iy belgilangan summada to'lovchi soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

**SOLIQ STAVKALARI**

T/r	Soliq to'lovchilar	Bir yillik soliq stavkalari (mln so'mda)
1.	Jami daromadi <i>besh yuz million so'mdan oshmagan</i> soliq to'lovchilar	20
2.	Jami daromadi <i>besh yuz million so'mdan yuqori bo'lgan</i> soliq to'lovchilar	30

**SK. 470<sup>1</sup>-modda. Qat'iy belgilangan summadagi soliq stavkasi bo'yicha soliq to'lashning o'ziga xos xususiyatlari**




Qat'iy belgilangan summadagi soliqning soliq to'lovchisidan dividendlar tarzida olinadigan daromatlarga soliq (*foyda va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i*) solinmaydi.

Qat'iy belgilangan summadagi soliqning soliq to'lovchisi mazkur soliq bo'yicha va dividendlar tarzidagi daromatlarga taalluqli qism bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyatidan ozod qilinadi.

**SK. 470<sup>1</sup>-modda. Qat'iy belgilangan summadagi soliq stavkasi bo'yicha soliq to'lashning o'ziga xos xususiyatlari**

Qat'iy belgilangan summadagi soliqning soliq to'lovchilari soliqni kalendar oyidan keyingi oyning **o'n beshinchi** sanasidan kechiktirmay har oyda teng ulushlarda to'laydi.



**DIQQAT SAVOL****O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN  
SAVOLLAR:**

1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun maxsus soliq rejimlarini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qachon va qaysi me'yoriy hujjat asosida ilk bor joriy qilingan?
3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida qanday soliqlar undirilgan?
4. Aylanmadan olinadigan soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qanday soliqlar guruhiga mansub? Fikringizni asoslab bering.
5. O'zbekiston Respublikasi soliqlar qonunida aylanmadan olinadigan soliq qachon joriy etildi?
6. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari tarkibini izohlab bering?
7. Aylanmadan olinadigan soliq qanday yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi?
8. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti nima?

**DIQQAT SAVOL****O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN  
SAVOLLAR:**

10. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi nima va u qanday tartibda aniqlanadi?
11. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish bazasidan qanday daromadlar chegirib tashlanadi?
12. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish bazasini aniqlashda qanday hollarda daromatlarga tuzatish kiritiladi?
13. Aylanmadan olinadigan soliqning stavkalari qanday miqdorlarda belgilanadi?
14. Aylanmadan olinadigan soliqning stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
15. Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash maqsadida qanday yo'l tutadilar?
16. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq va hisobot davrini izohlang.
17. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab qanday tartibda amalga oshiriladi?
18. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq hisobotini taqdim etish muddatini izohlang.
19. Aylanmadan olinadigan soliq qaysi muddatdan kechiktirinsadan byudjetga to'lanadi?

**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA  
TORTISH” FANI**

# **4 - MAVZU: IJTIMOIIY SOLIQ**



---

**REJA:**

1. Ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilari.
  2. Ijtimoiy soliqni solish obyekti, soliq bazasi hamda soliq stavkasi.
  3. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
  4. Ijtimoiy soliqni byudjetga to'lash tartibi.
-





## Ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2004-yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 567-son qaroriga muvofiq 2004-yil 1-yanvardan boshlab mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi) **majburiy badallar** to'lash o'rniga mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar mehnatiga haq to'lash jamg'armasidan **yagona ijtimoiy to'lov** joriy qilindi. Yagona ijtimoiy to'lov davlat soliq va yig'imlariga tenglashtirildi.



## Ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilari



2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan yagona ijtimoiy to'lov o'rniga **ijtimoiy soliq** joriy etildi.

Ijtimoiy soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bevosita soliq bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 402–409 moddalariga muvofiq undiriladi.



## Ijtimoiy soliqning iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilari

Soliq kodeksining 402-moddasiga muvofiq, Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:



O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari



O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalarini va filiallari



## Ijtimoiy soliqni solish obyekti, soliq bazasi hamda soliq stavkasi

Soliq kodeksining 403-moddasiga binoan, ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning *soliq solish obyekti*dir.





## Ijtimoiy soliqni solish obyektı, soliq bazasi hamda soliq stavkasi



O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham *soliq solish obyektidir*.



## Ijtimoiy soliqni solish obyektı, soliq bazasi hamda soliq stavkasi

Soliq kodeksining 403-moddasiga muvofiq, quyidagilar soliq solish obyektı hisoblanmaydi:



ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rmini qoplash tarzidagi. Soliq kodeksi 369-moddasi ikkinchi qismining ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;



paxta yig'in-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.



**Ijtimoiy soliqni solish obyektii, soliq bazasi hamda soliq stavkasi**



Soliq kodeksining 404-moddasiga muvofiq, ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish uchun **soliq bazasi** Soliq kodeksining 371-moddasi (*mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar*)ga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.



**Ijtimoiy soliqni solish obyektii, soliq bazasi hamda soliq stavkasi**

Soliq kodeksining 405-moddasiga muvofiq, **ijtimoiy soliq stavkalari** quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

## SK. 405-modda. Soliq stavkalari

	Soliq to'lovchilar, bundan 2-, 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
	Budjet tashkilotlari	25
	"SOS — O'zbekiston Bolalar mahallalari" uyushmalari	7
	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7



Ijtimoiy soliqni solish obyekti, soliq bazasi hamda soliq stavkasi

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan *pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.*





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING QARORI

### AHOLINING KAM TA'MINLANGAN QATLAMLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHGA OID QO'SHIMCHA CHORA- TADBIRLAR TO'G'RSIDA *2017-yil 12-sentabr; PQ-3268-son*

- 7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:**
- jamoat ishlariga jalb etilayotgan jismoniy shaxslar Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'laridan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod qilinadilar;
  - jamoat ishlariga jalb etiladigan, Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan jismoniy shaxslar mehnatiga to'langan haq sifatida olingan daromadlar yagona ijtimoiy to'lovga tortilmaydi;



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### DASTURIY MAHSULOTLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TEXNOLOGIK PARKINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

*2019-yil 10-yanvar; 17-son*

**Texnopark rezidentlari 2028-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga:**

barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni, shuningdek ijtimoiy soliqni to'lashdan ozod etilsin;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI  
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA OID QO'SHIMICHA  
CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA**

2022-yil 27-yanvar. PQ-104-son

a) 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanalarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash.

Bunda:

- mazkur soliq imtiyozni tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning mazkur kichik bandda ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi;
- mazkur kichik bandda ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to'xtatiladi hamda qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING FARMONI**



**«RESPUBLIKA HUDUDLARINI TOIFALARGA AJRATISH  
VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVYATLASHNING  
TABAQALASHTIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH  
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA»**

2022-yil 30-dekabr, PF-287-son

2. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilsin:

- a) 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (*yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno*):
- ijtimoiy soliqni 1 foiz soliq stavkasi bo'yicha to'laydi;





## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI



### «YOSHLARNING BANDLIGIGA KO'MAKLASHISH HAMDA ULARNI DOIMIY ISH BILAN TA'MINLASHGA OID QO'SHIMCHA CHORA- TADBIRLAR TO'G'RSIDA» 2023-yil 26-aprel, PF-61-son

2023-yil 1-maydan 2025-yil 1-yanvargacha qadar ish beruvchilarga (*byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'lovchilar bundan mustasno*) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budjetidan to'liq qoplab beriladi.

Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan etinchi oydan boshlab qoplab beriladi.



### Ijtimoiy soliqni solish obyekti, soliq bazasi hamda soliq stavkasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-son Qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari belgilangan tartibda *budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi o'rtasida quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:*



**2022-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:**

<b>a) budjet tashkilotlari bo'yicha:</b>	<b>taqsimot foizi</b>
➤ budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	<b>99,2 %</b>
➤ Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga va Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasiga	<b>0,4 %</b>
➤ O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga	<b>0,4 %</b>



**2022-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:**

<b>b) boshqa to'lovchilar bo'yicha:</b>	<b>taqsimot foizi</b>
➤ budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	<b>98,4 %</b>
➤ Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga va Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasiga	<b>0,8 %</b>
➤ O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga	<b>0,8 %</b>



## Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish tartibi



### 406-modda. Soliq davri. Hisobot davri

- **Kalendar yil soliq davridir.**
- **Yil oyi hisobot davridir.**



## Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq kodeksining 407-moddasiga muvofiq, ijtimoiy soliq soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Ijtimoiy soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.






## Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish tartibi

**Soliq hisoboti** soliq to'lovchi tomonidan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organlariga har oyda hisobot davridan keyingi oyning *o'n beshinchi* kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — keyingi yilning *15-fevralidan* kechiktirmay taqdim etiladi.



## Ijtimoiy soliqni to'lash tartibi



**Soliqni to'lash** soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay, ya'ni:

- har oyda hisobot davridan keyingi oyning *o'n beshinchi* kunidan kechiktirmay,
- yil yakunlari bo'yicha esa keyingi yilning *15-fevralidan* kechiktirmay amalga oshiriladi.

**DIQQAT SAVOL****O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN  
SAVOLLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish amaliyotida ijtimoiy soliq qachon joriy etilgan?
2. Ijtimoiy soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qanday soliqlar guruhiga mansub? Fikringizni asoslang.
3. Ijtimoiy soliqni to'lovchilari bo'lib qanday yuridik shaxslar hisoblanadi?
4. Ijtimoiy soliqning soliq solish obyekti nima?
5. Qanday xarajatlar soliq solish obyekti hisoblanmaydi?
6. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza qanday tartibda aniqlanadi?
7. Ijtimoiy soliqning stavkalari miqdorlarini izohlang.
8. Soliq to'lovchilarning qanday toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin? Fikringizni asoslang.

**DIQQAT SAVOL****O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN  
SAVOLLAR:**

10. Ijtimoiy soliqning soliq va hisobot davrini ayting.
11. Ijtimoiy soliq qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
12. Ijtimoiy soliq qanday to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi?
13. Ijtimoiy soliq qanday muddatlarda to'lanadi?
14. Ijtimoiy soliq qanday shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi?
15. O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha soliqni to'lash majburiyati kimga yuklatilgan?
16. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati kimga yuklatilgan?
17. Ijtimoiy soliq summasi qanday tartibda taqsimlanadi? Huquqiy asosini ayting.

## 5 - MAVZU: QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I



### REJA:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari tarkibi va soliq obykti.
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i solish bazasi va uni aniqlash tartibi.
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari, imtiyozlar va soliq davri.
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish tartibi.
6. Soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.



## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

**Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir.**

Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.



## Besh bosqichli ishlab chiqarish jarayonida qo'shilgan qiymatning hisoblanishi\*

№	Ishlab chiqarish bosqichlari	Mahsulot yoki xom-ashyoning sotilish narxi	Qo'shilgan qiymat miqdori
1	"A" firma qo'ychilik fermasi	0 60	60 (=60-0)
2	"B" firma junni qayta ishlash korxonasi	100	40 (=100-60)
3	"C" firma kostyum ishlab chiqaruvchi korxonasi	125	25 (=125-100)
4	"D" firma kiyim ulgurji savdosi korxonasi	175	50 (=175-125)
5	"E" firma, kiyim chakana savdosi korxonasi	250	75 (=250-175)
6	Sotuvning umumiy qiymati	710	-
7	Jami qo'shilgan qiymat	-	250

\*Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. - T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uy. 2004. 8-b.





## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

Ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) kabi universal bilvosita soliqni undirish imkoniyati haqida birinchi jahon urushi oxirida Germaniyada gapirila boshlandi.

Ushbu fikrlarning tashabbuskori bo'lib o'sha vaqtlarda transmilliy korporatsiyaga aylanib ulgurgan "SIMENS" kompaniyasining rahbarlaridan biri Vilgelm fon Simens hisoblanadi.



## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

1919-yilga kelib ushbu sanoat guruhi xorijiy davlatlardagi mulklarining katta qismini boy beradi, chet eldagi deyarli barcha patent huquqlarini yo'qotadi va umimiy tarzda o'z kapitalining deyarli yarmi miqdoridagi jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga duch keladi. Germaniyaning boshqa korxonalari ham yaxshi holatda emas edi.



## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

Germaniya iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida **Vilgelm fon Simens** Germaniya soliq tizimini isloh qilish, xususan davlatning xazinasini yirik miqdorda to'ldirishi mumkin bo'lgan, ammo soliqning og'irligi ishlab chiqaruvchilarga emas, balki oxirgi iste'molchilarning yelkasiga tushadigan *yangi bilvosita soliqni* joriy etish taklifini ilgari surdi.

Mazkur g'oyaning rivojlanishi Vilgelm fon Simensning bevaqt o'limi bilan yakunlandi va barcha qariyb yarim asr davomida QQSni unutdi.



## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz iqtisodchisi, Fransiya iqtisodiyot, moliya va sanoat vazirligining Soliq va yig'imlar boshqarmasi boshlig'i **Morris Lore** tomonidan **1954-yilda** ishlab chiqildi.



**Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi**

Qisqa munozaralardan so'ng, Fransiya hukumati o'sha paytdagi fransuz koloniyalaridan birida – **Kot-d'Ivuarda** ushbu yangi soliqni undirish mexanizmini “ishga tushirishga” qaror qildi. Tajriba juda muvaffaqiyatli deb topildi hamda 1958-yilda Fransiya o'z soliq tizimiga QQSni kiritdi.



**Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi**

O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i **1992-yilda** respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tovar (ish, xizmatlar)ga joriy etilgan bo'lsa, **1993-yil 1-fevraldan** boshlab uning hududiga olib kiriladigan import tovarlariga nisbatan tatbiq etila boshlandi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar mustasno.



## Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qillinishi

Qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita soliqqa tortish tizimida yetakchi ahamiyatga ega. Soliqdan tushumlar davlatimiz byudjetining daromad qismida muhim o'rin tutadi.



## Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil*
Jami daromadlar (maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz)	100	100	100	100	100
Bilvosita soliqlar, jami	45,8	45,4	42,5	36,6	38,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	35,1	34,4	31,9	26,6	27,4

\*prognoz ko'rsatkichlar



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq obyektı

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

1

• O'zbekiston Respublikasining **yuridik shaxslari**;

2

• tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan **yakka tartibdagi tadbirkorlar**;

3

• O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa;



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq obyektı

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

4

• faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5

• oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6

• O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar.

Mazkur shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tartibi va soliq obyekt

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq majburiyatlari Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

**Quyidagilar soliq to'lovchilar deb hisoblanmaydi, bundan yuqorida keltirilgan 6-bandda nazarda tutilgan hollar mustasno:**

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;
- aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchi shaxslar.



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tartibi va soliq obyekt

**Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish hisobida turadi.**

(“Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son qaroriga 1-ilova)





## SOLIQ ORGANLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA MAXSUS RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

- Aksid solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va (yoki) foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi shaxslar
- Boshqaruvchilik, yig'irg'itish va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
- Boshqaruvchi binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilish tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek, foydalanilmashtan ishlab chiqarish majmualarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ulardan kamida bir foydalanilayotganligi bo'yicha odatda hal qilingan tartibda yuzashtirilganida
- O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) reallaqtirish uchun chet el yuridik shaxslari to'langan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi e'tibor etilisa
- Boshqaruv va savdo kompaniyalari
- Auditorlik tashkilotlari
- Byudjet tashkilotlari
- Yuridik shaxslar - dindor yuridigi tovarlarni ishlab chiqaruvchi, boshqaruvchi, ulardan yig'irma besh gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lgan yoki baxta ko'm ashyosini ishlab chiqaruvchi
- Iqtisodiyotni tashkilotlash bo'yicha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
- Markazlashilgan motyivatsiya ma'muriyati hisobidan ob'ektlarni (joriy va kapital) ta'mirlash bundan mustasno) qurilish bajaruvchi yuridik shaxslar
- Akadempik mahsulotlari, shu jumladan, plovon chakani sotish bo'yicha turg'un savdo shaxobahalari
- Soliqlar maslahatchilari tashkilotlari
- Notijorat tashkilotlari

## SOLIQ ORGANLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA MAXSUS RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

<p><b>Rahbar</b></p> <p>Yangi <input type="text"/></p> <p>Shirkat <input type="text"/></p> <p>Manzil <input type="text"/></p>	<p><b>Bosh buxgalter</b></p> <p>Yangi <input type="text"/></p> <p>Shirkat <input type="text"/></p> <p>Manzil <input type="text"/></p> <p>99909964193</p>
<p><b>Arzaga qo'shilgan hujjatlar</b></p> <p style="text-align: center;">Foydalanuvchi: <b>Demirchilov, Qadriyot</b> Tashkilot</p> <p style="text-align: center;">Kiritilgan vaqt: <b>2021.09.23 15:56:42</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Vabot</b></p>	





## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari (tarkibi va soliq obyekt)

### Quyidagilar soliq solish obyektini hisoblanmaydi:

1

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2

- yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o'tkazish;

3

- ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o'zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4

- milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari (tarkibi va soliq obyekt)

### Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq, tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1

- tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;

2

- tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3

- mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;


4

- tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.



## Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq obyektii

**Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi:**



1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno.



## SK. 240-modda. Tovarlarini realizatsiya qilish joyi

Soliq kodeksining 240-moddasiga binoan, quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarini realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi:

1) tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

2) tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.



## VAZIYAT-1

**O'zbek korxonasi Rossiya kompaniyasiga tovar sotmoqda va shu maqsadda uni eksport bojxona rejimiga joylashtirmoqda.**

Mazkur holda Soliq kodeksining 240-moddasida belgilangan shartlardan biri bajarilmoqda, xususan, tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston hududida turibdi.

Tegishincha, tovarni realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston e'tirof etiladi va o'zbek korxonasida QQS solinadigan obyekt paydo bo'ladi.

Biroq, shuni hisobga olingki, tovarni chet el valyutasiga eksportga realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaga nol stavka bo'yicha QQS solinadi.



## VAZIYAT-2

**O'zbek korxonasi Rossiya kompaniyasiga Germaniya hududida joylashgan tovarni sotmoqda.**

Mazkur holda tovar avval boshdan O'zbekiston tashqarisida bo'lgani uchun Soliq kodeksing 240-moddasida belgilangan shartlardan birortasi bajarilayotgani yo'q.

Respublika mazkur operatsiyani amalga oshirish joyi bo'lib hisoblanmaydi, tegishincha, QQS solish objekti vujudga kelmaydi.



## SK. 241-modda. Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi

Soliq kodeksining 241-moddasiga muvofiq, basharti bunday xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O'zbekiston Respublikasi hududi **xizmatlarni realizatsiya qilish joyi** deb e'tirof etiladi.



## VAZIYATI

Rossiya qurilish kompaniyasi o'zbek korxonasi bilan tuzgan shartnomaga ko'ra O'zbekistonda sport majmuasini qurmoqda.

Mazkur holda norezident tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'chmas mulk (qurilish obyekti) bilan bog'liq. Shu sababdan, bajaruvchi chet el kompaniyasi bo'lishiga qaramasdan, ishlarni amalga oshirish joyi O'zbekiston hisoblanadi.

Tegishincha, Rossiya kompaniyasining qurilish ishlariga O'zbekistonda QQS solinadi.

Qurilish maydoni xorijiy yuridik shaxsning doimiy muassasasi (DM) deb e'tirof etilishi uchun undagi faoliyat istalgan ketma-ketlikdagi 12 oylik davr mobaynida 183 kundan ortiq muddat mobaynida davom etishi kerak (SK 36-m. 3-q. 1-b.). DM QQS to'lovchilari hisoblangani bois (SK 237-m. 1-q. 4-b.) ular realizatsiya qilish bo'yicha soliq solinadigan aylanmani o'z faoliyatidan kelib chiqib mustaqil belgilaydilar va QQS to'laydilar.



**Xorijiy yuridik shaxs O'zbekistonda bino xarid qilib, uni o'zbek korxonasiga ijaraga bermoqda.**

QOS solish maqsadida ijara xizmat deb e'tirof etiladi. Bino (ko'chmas mulk) O'zbekiston hududida joylashganligi bois bu xizmatni **realizatsiya qilish joyi respublika hududi hisoblanadi.**

Agar xorijiy yuridik shaxs QOS to'lovchisi sifatida O'zbekistonda ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, o'zbek korxonasi soliq agenti sifatida ijara haqidan QOS summasini ushlab qolishi va byudjetga soliq to'lashi shart (SK 255-m. 1-q).

Agar ijara shartnomasida ijara haqi o'z ichiga QOSni olishi ko'rsatilmagan bo'lsa, soliq agenti tegishli soliq summasini mustaqil ravishda hisoblab yozishi va byudjetga o'tkazishi shart (SK 255-m. 7-q).



**SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Soliq kodeksining 248-moddasiga ko'ra, **soliq bazasi** aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda **realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.**





**QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI  
ANIQLASH TARTIBI:**

$$S_{QQS} = A_{SS} \times H / 100 \quad (1)$$

bu yerda,

$S_{QQS}$  – QQS summasi;

$A_{SS}$  – soliq solinadigan aylanma;

$H$  – QQS stavkasi.



**QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI  
ANIQLASH TARTIBI:**

$$S_{QQS} = T_{QQS} \times H / H + 100 \quad (2)$$

bu yerda,

$S_{QQS}$  – QQS summasi;

$T_{QQS}$  – qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan tovar qiymati.



## SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda;

tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda);

yuridik shaxsning mol-mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.



## SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI "QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I HAMDA CHET EL YURIDIK SHAXSLARI BILAN BOG'LIQ SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" (2020-yil 14-avgust, 489-son)

- 1) Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rmini qoplash tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilova;
- 2) Hisobvara-q-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilova;
- 3) Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqib aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom 3-ilova;
- 4) Tovarlarga (xizmatlarga) haq to'lash bo'yicha majburiyat unid qilib bo'lmaydigan qarzdorlik deb e'tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo'lgan hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bazasiga tuzatish kiritish tartibi to'g'risidagi nizom 4-ilova;
- 5) Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to'g'risidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to'ldirish va taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom 5-ilova;
- 6) Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to'ldirish va taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom 6-ilova.



### SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli.

Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli.



### SK. 254-modda. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasini aniqlash tartibi

Tovarlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo'shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

1) tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatini;

2) tovarlar O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojini.



## QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI ANIQLASH TARTIBI:

$$S_{QQS} = (B_{qiymati} + A_{soliq} + B_{boji}) \times H$$

$S_{QQS}$  – qo'shilgan qiymat solig'i summasi

$B_{qiymati}$  – bojxona qiymati

$A_{soliq}$  – aksiz solig'i summasi

$B_{boji}$  – bojxona boji summasi

$H$  - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi



### SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, **soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, aksiz solig'i hisobga olingan holda aniqlanadi.**



## SK. 248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko'chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, **soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.**



## Soliq stavkalari

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (2 foiz, 15 foiz va nollik) amalda qo'llanildi.



## Soliq stavkalari

- ✓ **2000–2019-yillarda** (2019-yil 1-oktabrga qadar) respublikamizda 20 foizli va nol darajali stavkalar qo'llanilib kelindi.
- ✓ **2019-yil 1-oktabrdandan boshlab esa 15 foizli, nol darajali hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalash-tirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ining farqlangan stavkalari (farqlangan stavkalar 2020- yil 1-yanvardan bekor bo'lgan) joriy etildi.**



## SK. 258-modda. Soliq stavkalari

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi  
**12 foiz** miqdorida belgilangan.

Soliq kodeksining 36-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq stavkasi  
**0 foiz** miqdorida belgilanadi.

**Quyidagilarga nollik darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:**

1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar;

3) Xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlar;

**Quyidagilarga nollik darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:**

4) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;




**Quyidagilarga nollik darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:**

5) Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanma, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olish;



**SIK. 259 va 280-moddalar Soliq davri**

**Soliq davri**



**bir oy**

Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga **bir chorak**



## 33-bob. Soliq solishdan ozod etish

**Qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan.**

**Bular:**

1) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma (243-modda);

2) Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar (244-modda);

3) Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari (245-modda);

4) Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (246-modda).



**SK. 243-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma**

**Quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:**

- 1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;
- 2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;
- 3) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlarni;
- 4) tibbiy xizmatlar (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno);
- 5) veterinariya xizmatlarini;
- 6) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni



### SK. 244-moddasi. Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar

**Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:**

- 1) yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini omonatlarga jalb etish;
- 2) yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo'yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar;
- 3) yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko'rsatish;



### SK. 245-moddasi. Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlar

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

- 1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:
  - sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;
  - qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tanyemalar;
  - sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;



## SK. 245-modda. Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlar

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

- sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);
- preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;
- sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;
- sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.



## SK. 246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Quyidagilarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

- 1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonunchilikda tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;
- 3) o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;
- 4) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashyo.



## Soliqni hisoblab chiqarish, to'lash va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Agar hisoblab chiqarilgan, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi salbiy bo'lsa, soliq to'lovchi mazkur summaning o'rnini Soliq kodeksida belgilangan tartibda qoplash huquqiga ega bo'ladi (*30 yoki 7 kundan kechiktirmay*).



## Soliqni hisoblab chiqarish, to'lash va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq kodeksining 273-moddasiga binoan, soliq to'lovchilar **soliq hisobotini** o'zlari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o'tgan soliq davridan keyingi oyning **yigirmanchi kundan** kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart.



## Soliqni hisoblab chiqarish, to'lash va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan **soliqni to'lash** soliq hisobida turilgan joy bo'yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



## Soliqni hisoblab chiqarish, to'lash va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog'ida soliq **bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda** budjetga to'lanadi.



#### DIQQAT SAVOL

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchilari tarkibi.
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti.
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanna tarkibi.
5. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish joyi.
6. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanna amalga oshirilgan sana.
7. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha taqdim etilgan soliq intiyozlari tarkibi va ularning guruhlaniishi.
8. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanna.
9. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar.
10. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari.




#### DIQQAT SAVOL

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

11. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish.
12. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari.
13. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq bazasini aniqlash tartibi.
14. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash tartibi.
15. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari va soliq davri
16. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanna.
17. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish tartibi va to'langan soliq summalarini hisobga olish.
18. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarishda hisobga olinmaydigan soliq summasi.
19. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.



## 6 - MAVZU: AKSIZ SOLIG'I



---

### REJA:

1. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budget daromadlarida tutgan o'ri.
  2. Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi.
  3. Aksiz solig'i stavkalari va aksiz osti tovarlari.
  4. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.
  5. Aksiz markalari va ularning qo'llanilishi.
-



## Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rnini

Aksizlar, bojlarni hisobga olmaganda soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir.

Qadimgi Misrda XII–XIIIchi sulolalar davrida (er. avv. ikkinchi ming yillik) pivoga soliq solingan.

Albatta, bu to'lovlar hozirgi talqindagi aksizlar bo'lmasligi mumkin, lekin ularni aksizlarning dastlabki namunalari sifatida e'tiborga olish lozimdir.



## Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rnini

“Aksiz” termini, qator tadqiqotchilar fikricha, gollandcha *exijs* (qadim fransuzcha *accise*) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “soliqqa tortish maqsadida baholash” degan ma'noni anglatadi.

Bundan tashqari quyidagicha mulohaza ham mavjud, ya'ni “aksiz” so'zi lotincha “*accidere*” (kesib olmoq, kesmoq) so'zidan olingan bo'lib, bu soliqqa tortish maqsadida idishdagi ichimlik miqdorini o'lchash uchun foydalaniladigan maxsus cho'pdagi kertma belgini anglatgan”.



## Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rni

**Aksiz solig'ining quyidagi vazifalarini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz:**

- *birinchidan*, mamlakat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi;
- *ikkinchidan*, aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish.



## Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rni

*uchinchidan*, davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi;

*to'rtinchidan*, aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste'molchilari boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.



## Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o'rnini

Aksiz solig'i 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan 1992-yildan boshlab joriy etildi.



## Aksiz solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi


Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil*
Jami daromadlar (maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz)	100	100	100	100	100
Bilvosita soliqlar, jami	45,8	45,4	42,5	36,6	38,0
Aksiz solig'i	8,8	8,9	8,0	7,5	7,7

\*prognoz ko'rsatkichlar



**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modda**

**benzinni, dizel  
yoqilg'isini va gazni  
yakuniy  
iste'molchilarga  
realizatsiya qilishdagi  
aksiz solig'i**




**Qoraqalpog'iston  
Respublikasining  
Respublika budjetiga,  
viloyatlarning viloyat  
budjetlariga va  
Toshkent shahrining  
shahar budjetiga to'liq  
hajmda o'tkaziladi**



**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modda**

**mobil aloqa  
xizmatlari, tamaki,  
alkogol mahsulotlari,  
shu jumladan pivo  
uchun aksiz solig'i  
bo'yicha tushumlar**



**tegishincha o'tgan moliya  
yilining 1-iyul holatiga  
ko'ra O'zbekiston  
Respublikasi Davlat  
statistika qo'mitasidan  
olingan Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, viloyatlar va  
Toshkent shahri aholisi  
sonining respublika  
aholisi sonidagi ulushiga  
muvofiq o'tkaziladi.**



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DOIMIY AHOLI SONI (31.05.2022)

Hududlar	2022-yil	
	2022-yil	2021-yil
O'zbekiston Respublikasi	35271,3	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1948,5	5,5%
Andijon	3253,5	9,2%
Buxoro	1976,8	5,6%
Jizzax	1443,4	4,1%
Qashqadaryo	3408,3	9,7%
Navoiy	1033,9	2,9%
Namangan	2931,1	8,3%
Samarqand	4031,3	11,4%
Surxondaryo	2743,2	7,8%
Sirdaryo	878,6	2,5%
Toshkent	2939,7	8,3%
Farg'ona	3896,4	11,0%
Xorazm	1924,2	5,5%
Toshkent sh.	2862,4	8,1%



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- 2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:**

- 3) benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni gaz to'ldirish stansiyalari va gaz to'ldirish punktlari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. *Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;*



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:**

- 4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;
- 5) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchilar.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Quyidagilar ham soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi:**

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to'lanadigan xizmatlarni) ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 284-moddasiga ko'ra, aksiz solig'i solinadigan obyektlar quyidagilardan iborat:**

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to'lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;





## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 284-moddasiga ko'ra, aksiz solig'i solinadigan  
obyektlar quyidagilardan iborat:**

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan, shuningdek aksiz to'lanadigan shunday xomashyo va materiallarning mahsuli bo'lgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Soliq kodeksining 284-moddasiga ko'ra, aksiz solig'i solinadigan  
obyektlar quyidagilardan iborat:**

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

6) benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish

7) aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

### Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

- 1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish;
- 2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

### MISOL:

Rezident korxonada 1 000 dal vino materialini olib kirib, "bojxona hududida qayta ishlash" rejimida joylashtirgan.

Vino materialidan spirt qo'shilmagan 900 dal shisha idishdagi tabiiy vino ishlab chiqarilgan, shundan 700 dal eksport rejimida olib chiqilgan, 200 dal qayta ishlash xizmati uchun to'lov sifatida boshqa kompaniyaga berilgan.

O'zbekiston bojxona hududidan olib chiqiladigan vino soliq solish obyekti hisoblanmaydi. Qayta ishlash uchun to'lov sifatida berilgan 200 dal vinoni realizatsiya qilish chog'ida korxonada aksiz solig'ini to'lash majburiyati yuzaga keladi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

### Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

- 3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;
- 4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

### Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

- 5) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:
  - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;
  - davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Soliq kodeksining 285-moddasiga muvofiq, **soliq bazasi** belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari **mutlaq (qat'iy) summada** belgilangan bo'lsa, **soliq bazasi** aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) *naturada ifodalangan hajmidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol** (*qat'iy belgilangan soliq stavkasini qo'llash*).

Korxonada 2023-yil yanvar oyida spirt hajmi 40 foizdan ko'p bo'lgan ulush bilan 1 000 litr konyak ishlab chiqargan va realizatsiya qilgan.

1 litr konyak uchun soliq stavkasi 34 500 so'm bo'lganda soliq summasi 34 500 000 so'mni ( $34\,500 \times 1000$ ) tashkil etadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (*advalor*) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bo'lib realizatsiya qilingan *aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati*, biroq ularning *haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati* hisoblanadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol** (*advalor soliq stavkasini qo'llash*).

Korxonada bir tonnasining qiymati 10 mln so'mga teng bo'lgan (QQS va aksizsiz) 20 tonna polietilen granularlar ishlab chiqarib realizatsiya qilgan.

Soliq stavkasi – 10 %. Aksiz solig'i summasi 20 mln so'mni ( $10 \text{ mln} \times 20 \times 10 \%$ ) tashkil etadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha **soliq bazasi** aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir *ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallarning qiymatini o'z ichiga oladi.*



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol** (*qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyodan aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarishda soliq bazasini aniqlash*).

Korxonada buyurtmachining vino materialidan vino tayyorlash xizmatlarini ko'rsatadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo (vino materiali) qiymati – 100 000 ming so'm. Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan materialni qayta ishlash bo'yicha ishlarning qiymati – 29 500 ming so'm. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi 129 500 ming so'mni ( $100\ 000 + 29\ 500$ ) tashkil etadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan *qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.*



## Aksiz soliq'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol (birinchi usul bo'yicha aralash soliq stavkasini qo'llash).**

Korxonada 2023-yil yanvar oyida 1000 litr pivo import qilgan, uning bojxona qiymati 20 mln so'mni tashkil etadi.

Pivo uchun soliq stavkasi – 50 %, biroq bir litri uchun 12 800 so'mdan kam emas (1000 litr uchun 12 800 000 so'm).

Soliq summasi quyidagi miqdorni tashkil etadi:

- advalor stavka bo'yicha (50 %) – 10 000 000 so'm ( $20\,000\,000 \times 50\%$ );
- Qat'iy belgilangan stavka bo'yicha – 12 800 000 so'm ( $1000 \times 12\,800$ ).

Qat'iy belgilangan stavka bo'yicha aksiz advalor stavkadagi summadan ko'p bo'lgani uchun import qiluvchi 12 800 000 so'm to'laydi.



## Aksiz soliq'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol (ikkinchi usul bo'yicha aralash soliq stavkasini qo'llash).**

Korxonada 2023-yil yanvar oyida 500 quti sigareta ishlab chiqarib realizatsiya qilgan, ularga qiymati 2 000 000 so'mlik 10 000 dona sigareta solingan.

Belgilangan stavka – 1 000 donasi uchun 203 500 so'm + 10 %.

- Qat'iy belgilangan stavka bo'yicha soliq summasi 2 035 000 so'mni ( $10\,000 : 1\,000 \times 203\,500$ ) tashkil etadi.
- Foizlarda (advalor) belgilangan stavka bo'yicha soliq summasi 200 000 so'mni ( $2\,000\,000 \times 10\%$ ) tashkil etadi.

To'lanadigan soliq summasi qat'iy belgilangan va advalor stavkalar bo'yicha soliq summasiga teng: 2 235 000 so'm ( $2\,035\,000 + 200\,000$ ).





## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, **soliq bazasi** bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan *bojxona qiymati* asosida aniqlanadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, **soliq bazasi** import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning *natura holidagi hajmidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan **aralash soliq stavkalari** belgilangan bo'lsa, ***soliq bazasi*** bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning *naturada* ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning *naturada ifodalangan hajmi* **soliq bazasi** hisoblanadi



## Aksiz solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi

**Misol** (*dizel yoqilg'isi bo'yicha aksiz solig'ini hisoblash*).

Korxonada 2023-yil yanvar oyida yakuniy iste'molchiga 50 tonna dizel yoqilg'isini realizatsiya qilgan. Soliq stavkasi – 1 tonna uchun 468 000 so'm.

**Aksiz solig'i 23 400 000 so'mga ( $50 \times 468\,000$ ) teng.**



## Aksiz solig'i stavkalari va aksiz osti tovarlari

Soliq kodeksining 289-moddasida soliq stavkalari keltirilgan. Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan **foizlarda (advalor)**, naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan **mutlaq summada** (qat'iy belgilangan), shuningdek advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'z ichiga olgan **aralash stavkada** belgilanadi.



## SK. 289<sup>1</sup>-modda. Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

№	Tamaki mahsulotlarining turi	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtersiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	342 000 so'm/1 000 dona + 10 foiz	2023-yil 1-yanvardan: 203 500 so'm/1 000 dona + 10 foiz 2023-yil 1-fevraldan: 223 850 so'm/1 000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	5 720 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	341 000 so'm/kg	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	341 000 so'm/kg	



## SK. 289<sup>1</sup>-modda. Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari

№	Tamaki mahsulotlarining turi	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimildigan tamaki	310 000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	341 000 so'm/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	125 500 so'm/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)	605 so'm/ml	



## SK. 289<sup>2</sup>-modda. Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		Import qilinganda	Ishlab chiqariladigan	
			2023-yil 1-yanvardan	2023-yil 1-fevraldan
1.	Oziq-ovqat xom-ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi	70 %	7 450 so'm	
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 3- va 4-bandlar mustasno)	106 800 so'm	34 500 so'm	38 000 so'm



## SK. 289<sup>2</sup>-modda. Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan	
			2023-yil 1-yanvardan	2023-yil 1-fevraldan
3.	Vino:			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	30 000 so'm	1 so'm	
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	42 750 so'm	1 980 so'm	2 200 so'm
4.	Pivo	50 %, biroq 12 800 so'mdan kam bo'lmagan	1 380 so'm	1 550 so'm



**SK. 289<sup>4</sup>-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari**

TVr	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkalari	
		2023-yil 1-yanvardan	2023-yil 1-fevraldan
1E	Neft mahsulotlari:		
	benzin	275 000 so'm/tonna	303 000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	220 000 so'm/tonna	242 000 so'm/tonna
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	264 000 so'm/tonna	291 000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	237 600 so'm/tonna	262 000 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	374 000 so'm/tonna	412 000 so'm/tonna
2A	Polietilen granularlar		10 %
3	Tabiiy gaz, bundan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan gaz mustasno		20 %



**SK. 289<sup>4</sup>-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari**

TVr	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkalari	
		2023-yil 1-yanvardan	2023-yil 1-fevraldan
4E	Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilinadigan:		
	benzin	1 litr uchun 385 so'm/1 tonna uchun 512 000 so'm	1 litr uchun 425 so'm/1 tonna uchun 565 000 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 385 so'm/1 tonna uchun 468 000 so'm	1 litr uchun 425 so'm/1 tonna uchun 516 000 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 385 so'm/1 tonna uchun 730 000 so'm	1 litr uchun 425 so'm/1 tonna uchun 807 500 so'm
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 550 so'm	1 kub metr uchun 605 so'm



**SK. 289<sup>3</sup>-modda. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari**

№/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkalari	
		2023-yil 1-yanvardan	2023-yil 1-fevraldan
5.	Mobil aloqa xizmatlari	10 %	
6.	Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar	20 %	



**Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tarabi**

**Aksiz solig'ining soliq davri bo'lib, bir oy hisoblanadi.**

Soliq kodeksining 292-moddasiga muvofiq, **soliq hisoboti** soliq bo'yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga *har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay* taqdim etiladi.



**Aksiz soliq'ni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi**

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, **soliq hisoboti** avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi soliq organlariga *har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay* taqdim etiladi.



**Aksiz soliq'ni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi**

Soliq kodeksining 293-moddasiga ko'ra, soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay, ya'ni *har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay* amalga oshiriladi.





## Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliqni to'lash bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.



## Aksiz markalari va ularning qo'llanilishi

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek aksiz solig'i to'liq undirilishi, ko'rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida»gi 285-son qarori qabul qilindi.



## Aksiz markalari va ularning qo'llanilishi

Unga muvofiq 1996-yil 1-oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi *aksiz markalari* bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish ta'qiqlandi.



### DIQQAT SAVOL

## O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. Aksiz solig'ining soliq to'lovchilari tarkibi.
3. Aksiz solig'ining soliq solish obyekti.
4. Aksiz solig'i solish obyekti: soliq solinadigan va solinmaydigan obyektlar.
5. Aksiz solig'i solish bazasi va uni aniqlash tartibi.
6. Aksiz solig'i stavkalari va ularning guruhlanishi.
7. Aksiz solig'ining tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari.
8. Aksiz solig'ining alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari.
9. Aksiz solig'ining neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari.
10. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi.
11. Aksiz solig'i bo'yicha aksiz markalarini qo'llashning ahamiyati.

**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA  
TORTISH” FANI**

**7 - MAVZU: YURIDIK  
SHAXSLARNING  
MOL-MULKIGA SOLINADIGAN  
SOLIQ**



**REJA:**

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.
2. Mol-mulk solig‘i to‘lovchilari, soliq solish obyekti va soliq bazasi.
3. Mol-mulk solig‘i stavkalari, soliqdan imtiyozlar.
4. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.

**O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati**

O‘zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq **to‘g‘ri soliqlar** tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq **1992-yildan boshlab** O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq joriy qilingan.

## O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati



Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad:

*birinchidan*, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda foydalanilmayotgan mol-mulkni sotishga undash;

*ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishga qiziqishini uyg'otishdan iborat.

## Mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi

Daromadlar	2019	2020	2021	2022	2023
	yil	yil	yil	yil	yil*
	foizda	foizda	foizda	foizda	foizda
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	16,5	16,2	13,2	11,4	11,4
Mol-mulk solig'i	1,8	1,8	1,7	1,6	1,9

\*prognoz ko'rsatkich

## Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi

Daromadlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil*
	foizda	foizda	foizda	foizda	foizda
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i	1,2	1,1	1,1	1,0	1,2

*\*prognoz ko'rsatkich*

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modd

Yuridik  
shaxslarning mol-  
mulkiga  
solinadigan soliq



Qoraqalpog'iston  
Respublikasining  
respublika budjetiga,  
viloyatlarning viloyat  
budjetlariga va Toshkent  
shahrining shahar  
budjetiga to'liq hajmda  
o'tkaziladi

Amaldagi Soliq kodeksining 410-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning *soliq to'lovchilari* deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston  
Respublikasi  
hududida soliq solish  
obyekti hisoblanuvchi  
mol-mulkka ega  
bo'lgan O'zbekiston  
Respublikasi yuridik  
shaxslari

O'zbekiston  
Respublikasi  
hududida ko'chmas  
mulkka ega bo'lgan  
O'zbekiston  
Respublikasining  
nerezidentlari bo'lgan  
yuridik shaxslar

### **SK. 410-modda. Soliq to'lovchilar**

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi yoki undan foydalanuvchi shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko'chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo'lsa, u ham soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

## SK. 411-modda. Soliq solish obyekt



Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq **soliq solish obyekt** hisoblanadi.

**Ko'chmas mulk obyektlari** — yer uchastkalari, binolar va inshootlar (shu jumladan yer osti inshootlari) va ko'p yillik ekinlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar va boshqa o'rmon daraxtlari).

## SK. 411-modda. Soliq solish obyekt



**Ko'chmas mulk jumlasiga** quyidagilar kiradi:

- 1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan **binolar va inshootlar**;
- 2) **qurilishi tugallanmagan obyektlar**. *Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;*





**«Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM»**

*Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda  
1060-son qaroriga 1-ILOVA*

**bino** — funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo'lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo'ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;

**inshoot** — har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo'lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o'tishga mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat, yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida hajmli, yassi yoki chiziq tarzida joylashgan qurilish tizimi.

**SK. 411-modda. Soliq solish obyekti**




**Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:**

**3) temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;**

**4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.**



Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning obyektini qilib faqatgina *ko'chmas mulk obyektlari* belgilandi.



### SK. 411-modda. Soliq solish obyektini



Quyidagi ko'chmas mulk obyektlari soliq solish obyektini hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;
- 2) uy-joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari.
- 3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;
- 4) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

## SK. 411-modda. Soliq solish obyekt



Quyidagi ko'chmas mulk obyektlari soliq solish obyekt hisoblanmaydi:



5) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofaza va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;



6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar.

7) yer uchastkalari.

## SK. 412-modda. Soliq bazasi


Quyidagilar soliq bazasidir:

1) Soliq kodeksining 411-moddasi ikkinchi qismining 1 (*binolar va inshootlar*) va 3-bandlarida (*temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari*) nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha — *o'rtacha yillik qoldiq qiymati*.



## SK. 412-modda. Soliq bazasi

Ko'chmas mulkning **qoldiq qiymati** ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.



## SK. 412-modda. Soliq bazasi

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan obyektlar (*binolar va inshootlar*)ga nisbatan soliq bazasi quyidagi miqdorlarda **1 kv. metr** uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lishi mumkin emas:

**2 500 000**

• Toshkent shahrida

**1 500 000**

• Nukus shahrida va viloyat markazlarida

**1 000 000**

• boshqa shaharlarda va qishloq joylarda

## SK. 412-modda. Soliq bazasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab **0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffitsiyent** kiritishi mumkin.



## SK. 412-modda. Soliq bazasi



Agar obyektning 1 kv. metri qiymati belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lsa, soliq to'lovchi ko'chmas mulk obyektlari qiymatini **mustaqil baholashni** amalga oshirishga haqli.

Bunda mustaqil baholash natijalari, shu jumladan soliq to'lovchi tomonidan o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e'tirof etiladi.

Belgilangan eng kam qiymat tatbiq etilmaydigan ko'chmas mulk obyektlari qonunchilikda belgilanadi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING QARORI  
«BUDJETLARARO MUNOSABATLARNI VA  
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RSIDA»

2022-yil 15-aprel, PQ-208-son



3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasi birinchi qismi 1-bandi uchinchi — beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan tartib **minoralar, ko'priklar (estakadalar), rezervuarlar (o't o'chirish inshootlari, sistemalar), bostirmalar, shiyponlar, beton maydonlar va devorlar (bordyurlar)** uchun tatbiq etilmasligi belgilansin.

Bunda, belgilangan eng kam mutlaq miqdor qo'llanilmaydigan obyektlarning ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasining tadbirkorlik subyektlari va baholash faoliyati sohasidagi professional tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq berilgan takliflari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING QARORI



«XIZMATLAR SOHASINI  
RIVOJLANTIRISHGA OID  
QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR  
TO'G'RSIDA»

2022-yil 27-yanvar, PQ-104-son

b) tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvargacha qadar *mehmonxona* (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan *savdo komplekslari* (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo'yicha:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish.

Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llash;

## SK. 412-modda. Soliq bazasi


2) Soliq kodeksining 411-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar (*qurilishi tugallanmagan obyektlar*) bo'yicha — *tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati*;

3) Soliq kodeksining 411-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida (*qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari*) belgilangan obyektlar bo'yicha — mazkur obyektlarning *o'rtacha yillik qiymati* (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).



## SK. 412-modda. Soliq bazasi

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning **o'rtacha yillik qiymatidir.**





### SK. 413-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Soliq solish obyektlarining **o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat)** soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'rtacha yillik qoldiq qiymati	=	$\frac{31 \text{ yanvar} + 28 (29) \text{ fevral} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr}}{12}$
--------------------------------	---	---

### SK. 414-modda. Soliq imtiyozlari

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning **o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga)** kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining;

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek, ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning.



## SK. 414-modda. Soliq imtiyozlari

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

3) yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga.

Yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladi.

## SK. 414-modda. Soliq imtiyozlari


**Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:**

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;



## SK. 414-modda. Soliq imtiyozlari

**Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:**





2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

## SK. 414-modda. Soliq imtiyozlari

**Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:**

3) qishloq joylarda joylashgan (bundan shaharlar va tumanlarning markazlari mustasno) antenna-machta metall konstruksiyalari, shu jumladan ularga o'rnatilgan hamda ularning ajralmas qismi bo'lgan konstruksiyalar;



## SK. 483-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

Quyidagilar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2020-yil 11-noyabr; PQ-4889-son)da Qoraqalpog'iston Respublikasining har bir shahari va tumani uchun "o'sish nuqtasi" deb belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan muddatga;

Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Bo'zatov va Shumanay tumanlarida joylashgan, yangidan tashkil etilgan sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan muddatga.

## SK. 483-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

Quyidagilar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

Surxondaryo viloyatining *Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod* tumanlarida, *tog'li hududlarida va yer maydonlari sho'rlangan hududlarida* davlat ro'yxatidan o'tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu tumanlarda (hududlarda) o'z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'ini to'lashdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda ozod qilinadi.

**SK. 433-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari**

**Quyidagilar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:**

**2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning **1 foizi** miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi.**

**SK. 433-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari**

**Quyidagilar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:**

**Tadbirkorlik subyektlari 2022-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda maydoni *besh ming kvadrat metrdan* yuqori bo'lgan savdo komplekslari va mehmonxona (joylashtirish vositalari), shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari bo'yicha quyidagilarga haqli: yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq stavkalariga nisbatan **0,1 koeffitsiyentni** qo'llashga.**

## SK. 483-modda. Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

Quyidagilar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

Charm, mo'yna xomashyosini va junni tayyorlash, saqlash hamda qayta ishlash, qoramolni avtomatlashtirilgan tarzda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar **2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha** qadar bo'lgan davrda ushbu faoliyati bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lashdan ozod etiladi.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING FARMONI




«RESPUBLIKA HUDUDLARINI TOIFALARGA AJRATISH VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING TABAQALASHTIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'IRISIDA»


2022-yil 30-dekabr, PF-287-son

2. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha qadar soliq solishining quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilsin:
- a) 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (*yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budget tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno*):
    - yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi;
  - g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga 4-toifadagi tumanlar bo'yicha:
    - yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan belgilangan eng kam qiymatlarga **0,3 gacha**.

**Yuridik shaxslarning  
mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari  
(SK. 415-modda. Soliq stavkalari)**



**Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan  
obyektlarga nisbatan soliq stavkasi  
(SK. 415-modda. Soliq stavkalari)**



## SK. 415-modda. Soliq stavkalari

**Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,6 foiz miqdorida belgilanadi:**

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

## SK. 416-modda. Soliq davri

**Kalendar yil soliq davridir.**





**SK. 417-moddasi. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

**Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay taqdim etiladi**



**SK. 417-moddasi. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

Agar ko'chmas mulk, Soliq kodeksining 411-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko'rsatilgan obyektlardan tashqari (*temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar*), soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, soliq hisoboti ko'chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organlariga taqdim etiladi.



**SK. 417-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**



Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar (*bundan O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar mustasno*) soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi.

**SK. 417-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi.



**SK. 417-moddia. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

**Hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar quyidagicha to'lanadi:**

aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 20-kunidan kechiktirmay;


aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay. Bunda yanvar oyi uchun 20-yanvardan kechiktirmay to'lanadi.

**SK. 417-moddia. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

Soliq davri uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi, bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.



**SK. 417-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**



**O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to'lanadi.**



**DIQQAT SAVOL**

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari kimlar?
4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning obyeksi va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Korxonaga mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymati) qanday tartibda aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi qanday miqdorda belgilangan?
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan qanday yuridik shaxslar imtiyozga ega?
8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qaysi muddatda taqdim etiladi?
9. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday muddatlarda to'lanadi?
10. Me'yoriy muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday belgilangan?

## 8 - MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I



### REJA

1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar.
3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i obyekti, bazasi va soliq stavkalari.
4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.
5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi.

### Yer solig'ining joriy etilishi

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'ta boshlagach 1990-yil 20-iyunda **“Yer to'g'risida”gi 97-XII-son Qonun** qabul qilindi. Unga binoan yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi.

### Yer solig'ining joriy etilishi

1993-yi 6-mayda **O'zbekiston Respublikasining “Yer solig'i to'g'risida”gi 831-XII-son Qonuni** qabul qilindi unda soliq solishning obykti va subyektlari, imtiyozlar, soliq to'lash tartibi batafsil belgilab berildi. Mazkur qonun **1994-yilning 1-yanvaridan** boshlab kuchga kirdi.

## Yer solig'ining huquqiy asosi va iqtisodiy mohiyati

1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi va 1998-yil 1-yanvardan kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining huquqiy asoslari yaratildi.

Hozirgi kunda esa yer solig'i 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga (424-432-moddalar) asosan undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Yer solig'i mahalliy budjetlarga yo'naltiriladi. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq hisoblanib, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarga xos soliq turi hisoblanadi.

## Yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi

Daromadlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil*
	foizda	foizda	foizda	foizda	foizda
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	16,5	16,2	13,2	11,4	11,4
Yer solig'i	1,8	1,9	2,0	2,1	2,5

\*prognoz ko'rsatkich


**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi**

Daromadlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil*
	foizda	foizda	foizda	foizda	foizda
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	1,1	1,0	1,3	1,4	1,6

*\*prognoz ko'rsatkich*

**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda gi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida gi O'RG-313-son Qonun, 12-moddasi**

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i**



Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi.

## Yer solig'ini joriy etishning maqsadi

Yer solig'ining joriy etilishidan maqsad:

Yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish

Tuproq unumdorligini oshirish

Sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish

Yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik

## SK. 424-moddada Umumiy qoidalar

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.





## SK. 424-modda. Umumiy qoidalar

Tuman (shahar) hokimi bilan tuzilgan yer uchastkasining ijara shartnomasi asosida berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi.



Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

## SK. 425-modda. Soliq to'lovchilar

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar:**

Mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar va norezidentlar

Egalik qilish huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar va norezidentlar

Foydalanish huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar va norezidentlar


Ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar va norezidentlar

## SK. 425-modd. Soliq to'lovchilar

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, **ijaraga beruvchi soliq to'lovchi** deb e'tirof etiladi.

Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) **soliq to'lovchi** deb e'tirof etiladi.

## SK. 426-modd. Soliq solish obyektı



## SK. 426-modda. Soliq solish obyektii

### Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektii hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shaxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);

## SK. 426-modda. Soliq solish obyektii

### Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektii hisoblanmaydi:

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohtar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'lari-ning, davlat tabiat yodgorliklari-ning, buyurtma qo'riqxonalarining (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervallarining, milliy bog'larning yerlari;

**SK. 426-moddta. Soliq solish obyektii**

**Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektii  
hisoblanmaydi:**

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

**SK. 426-moddta. Soliq solish obyektii**

**Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektii  
hisoblanmaydi:**

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog'lari egalagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

### SK. 426-modda. Soliq solish obyektı

**Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektı hisoblanmaydi:**

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko'p kvartirali uylar va yotoqxonalar egallagan yerlar, shuningdek ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari, bundan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektleri egallagan yer uchastkalari mustasno;

### SK. 426-modda. Soliq solish obyektı

**Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektı hisoblanmaydi:**

13) suv fondi;

14) zaxiralar;

15) geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlarini o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari.

Yuqorida ko'rsatilgan yer uchastkalari xo'jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular belgilangan tartibda soliq solish obyektı hisoblanadi.

**SK. 427-moddasi. Soliq bazasi**

**Quyidagilar soliq bazasidir:**

**qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha** – Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining **umumiy maydoni**;

**SK. 427-moddasi. Soliq bazasi**

**Quyidagilar soliq bazasidir:**

**qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha** – Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan **normativ qiymati**.

### SK. 427-modd. Soliq bazasi

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, **soliq bazasi** yer uchastkalariga tegishli *huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran* hisoblab chiqariladi.

Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, **soliq bazasi** yer uchastkasi maydoni *kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi*.

### SK. 427-modd. Soliq bazasi

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, **soliq bazasi** ushbu *huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi*.

Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq bekor qilingan taqdirda, **soliq bazasi** ushbu *huquq tugatilganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi)*.

**Yer solig'idan taqdim etilgan  
imtiyozlarni guruhlash**

**Yer solig'idan berilgan  
imtiyozlar:**

yer solig'idan  
muddatli ozod  
etish

yer solig'i  
solinmaydigan  
yer uchastkalari

**SK. 428-modda. Soliq imtiyozlari**

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati **0,1 MVt** va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran **o'n yil** muddatga soliqdan ozod etiladi.



### SK. 428-modda. Soliq imtiyozlari

#### Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari band qilgan yerlar mustasno) va ijtimoiy ta'minot obyektlari egallagan yerlar;
- shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

### SK. 428-modda. Soliq imtiyozlari

#### Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari;
- sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar-sog'lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;
- magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

### **SK. 428-modda. Soliq imtiyozlari**

**Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:**

- suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oying boshidan e'tiboran besh yil muddatga.

### **SK. 428-modda. Soliq imtiyozlari**

**Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:**

- qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

## SK. 429-modda. Soliq stavkalari

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:**

## Yer solig'i stavkalari (2023-yil uchun)

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so'mda)
Toshkent shahri:	
1 zona	242
2 zona	193
3 zona	149
4 zona	99
5 zona	50
Qoraqalpog'iston Respublikasi	31
Andijon viloyati	39
Buxoro viloyati	32
Jizzax viloyati	32
Qashqadaryo viloyati	32
Navoiy viloyati	32
Namangan viloyati	39
Samarqand viloyati	39
Surxondaryo viloyati	29
Sirdaryo viloyati	24
Toshkent viloyati	33
Farg'ona viloyati	33
Xorazm viloyati	32

## SK. 429-modda. Soliq stavkalari

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari **0,5 dan 2,0 gacha** bo'lgan *kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni* qo'llagan holda, yuqoridagi jadvalning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi.

## SK. 429-modda. Soliq stavkalari

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:**

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, yuqoridagi jadvalning ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa — yuqoridagi jadvalning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga **0,7 dan 3,0 gacha** bo'lgan *kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni* ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdorini aniqlash (Solqivuz sayti orqali)**



**O'zbekiston Respublikasi  
Davlat soliq qo'mitasi**

[Qo'mita haqida](#) [Faoliyat](#) [Ma'muriy hujjatlar](#) [Soliqqa tortish](#) [Matbuot sızmati](#) [Xizmatlar va servislər](#)

## Yer solig'i stavkalari

Yuridik shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar  
uchun 2023-yil yer solig'i stavkalari

Yiloyat  • Tuman  • 2023  • Yuridik shaxslar

Yiloyat	Tuman	2023	Yuridik shaxslar

## SK. 429-modda. Soliq stavkalari

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining **31-dekabriga qadar** qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini **5 kun ichida** soliq to'lovchilarga ma'lumot uchun yetkazishlari kerak.

**SK. 429-modda. Soliq stavkalari**

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining *normativ qiymatiga* nisbatan **0,95 foiz** miqdorda belgilanadi.

**SK. 429-modda. Soliq stavkalari**

**Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalariga 0,25 koeffitsient qo'llaniladi:**

yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;

### **SK. 429-modda. Soliq stavkalari**

#### **Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,4 koeffitsient qo'llaniladi:**

- elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;
- umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorelc aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

### **SK. 429-modda. Soliq stavkalari**

#### **Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0.4 koeffitsient qo'llaniladi:**

- umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaqa qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

## SK. 429-modd. Soliq stavkalari

**Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,4 koeffitsient qo'llaniladi:**

- samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

- O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;

- konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

## SK. 429-modd. Soliq stavkalari

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining **4 baravari** miqdorida belgilanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan konlar va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga **0,1 koeffitsientini** qo'llagan holda to'lanadi.



**SK. 430-modda. Soliq davri**

**Kalendar yil soliq davridir.**

**SK. 431-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va **soliq hisoboti** yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha — joriy soliq davrining **20-yanvaridan** kechiktirmay

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha — joriy soliq davrining **1-mayidan** kechiktirmay

**SK. 481-moddasi. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Ko'p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektlari bilan band bo'lgan yer uchastkalari bo'yicha soliq turar joy bo'lmagan ko'chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo'lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

**SK. 482-moddasi. Soliqni to'lash tartibi**

**Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:**

- aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining *to'rt*dan bir qismi miqdorida, har chorak uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay

- aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining *o'n ikki*dan bir qismi miqdorida, har oyning 10-sanasidan kechiktirmay. Bunda yanvar oyi uchun 20-yanvardan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## SK. 432-modda. Soliqni to'lash tartibi

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi :**

- hisobot yilining  
**1-sentabriga qadar**  
- yillik soliq  
summasining  
**30 foizi;**

- hisobot yilining  
**1-dekabriga qadar -**  
soliqning qolgan  
summasi.



**DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Yer solig'ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Qanday yuridik shaxslar yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
5. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibidagi yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari hisoblanadimi?
6. Qanday hollarda notijorat tashkilotlar yer solig'i to'lovchilar hisoblanadi?
7. Yer solig'ini undirish obyekti nima?
8. Yer solig'i stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
9. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
10. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
11. Yuridik shaxslar yer solig'ining hisobotini qanday muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadi?
12. Yuridik shaxslar yer solig'i summasini byudjetga qanday muddatlardan kechiktirmay to'laydilar?

**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA  
TORTISH” FANI**

**9 - MAVZU: SUV  
RESURSLARIDAN  
FOYDALANGANLIK  
UCHUN SOLIQ**



**REJA:**

- 1) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
- 2) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari.
- 3) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti, soliq bazasi va uni aniqlash tartibi.
- 4) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.
- 5) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.**

Respublikamizda suvga doir munosabatlarni tartibga solish, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suv obyektlarining holatini yaxshilash kabi vazifalardan kelib chiqqan holda 1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining *«Suv va suvdan foydalanish to'grisida»*gi qonuni qabul qilindi.

Respublikamizda suv tanqisligini hisobga olgan holda va suv resurslaridan tejamkorlik va oqilona foydalanish maqsadida *1998-yildan* e'tiboran *suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq* joriy etildi.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq respublikada joriy qilingan soliq tizimining eng oson va nisbatan takomillashgan shaklidir.

Mazkur soliq turi respublikamizda 1993-yilda *suv to'lovi* sifatida joriy etilgan edi.




## Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil*
Jami daromadlar (maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz)	100	100	100	100	100
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	16,5	16,2	13,2	11,4	11,4
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,3	0,3	0,3	0,5	0,4

\*prognoz ko'rsatkich

**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING**  
**“SUV VA SUVDAN FOYDALANISH**  
**TO‘G‘RISIDA” QONUNI**  
**1993-yil 6-may, 837-XII son**

**3-modda. Suvga davlat egaligi**  
**Suv O‘zbekiston Respublikasining**  
**davlat mulki – umummilliy boylik**  
**hisoblanadi, suvdan oqilona**  
**foydalanish lozim bo‘lib, u davlat**  
**tomonidan qo‘riqlanadi.**

**Suv solig‘ini to‘lovchilar kimlar?**

**suvdan foydalanuvchi**

suv resurslarini suv obyektidan  
olmagan holda ulardan o‘z  
ehtiyoblari uchun foydalanuvchi  
yuridik yoki jismoniy shaxs

**suv iste‘molchisi**

o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun  
suv obyektidan yoki suv xo‘jaligi  
obyektidan suv resurslarini  
belgilangan tartibda oluvchi yuridik  
yoki jismoniy shaxs

**suv obyekt**

suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to‘planadigan va suv rejimining o‘ziga xos shakllari va belgilari bo‘lgan tabiiy (jilg‘alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun‘iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko‘llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sun‘iy (suv omborlari, sel suvlari to‘planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlar

**SK. 441-modda. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:**

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari

faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar


**SK. 441-modda. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste'mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:**

suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

dehqon ho'jaliklari, shuningdek qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar



**SK. 442-modda. Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir.**



**SK. 442-modda. Soliq solish obyekt**

**Quyidagilar soliq solish obyekt bo'lmaydi:**

- 1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;
- 2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

**SK. 442-modda. Soliq solish obykti**


**Quyidagilar soliq solish obykti bo'lmaydi:**

- 5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;
- 6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;
- 7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.
- 8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari.

**SK. 443-modda. Soliq bazasi**


**Foydalanilgan  
suvning hajmi  
soliq bazasidir.**

### SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi



Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya hisobi hujjatlarida aks ettirilgan **suv o'lhagich asboblari ko'rsatkichlari** asosida aniqlanadi.

### SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi



Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi **suv obyektlaridan suv olish limitlaridan**, suvni iste'mol qilishning texnologik va sanitariya **normalaridan**, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug'orish **normalaridan** yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

#### **SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining **alohida hisobini yuritadi.**

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning **har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.**

#### **SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan **suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15-yanvariga qadar taqdim etishi kerak.**

Soliq organlari **uch kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.**

**Suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumot  
(2023-yil uchun)**



**O'ZSUVTA'MINOT**

"Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJ



09.01.23 № 136/11.34

Руководителю предприятия

Сообщаем, что на 2023г. Процентное соотношение поверхностных и подземных вод составляет:

Поверхностные воды – 90,89 %

Подземные воды – 9,11 %

**Misol.** 2023-yilda korxonadan tomonidan vodoprovod tarmog'idan foydalanilgan umumiy suv hajmi suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari bo'yicha 10 000 metr kubni tashkil etgan.

Soliq solinadigan baza quyidagicha aniqlanadi:

- yer usti manbalaridan foydalanilgan suv hajmi bo'yicha – 9 089 m<sup>3</sup> (10 000 \* 90,89 %);
- yer osti manbalaridan – 911 m<sup>3</sup> (10 000 \* 9,11 %)

#### **SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini **mustaqil ravishda aniqlaydi.**

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlash-tirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

#### **SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun **soliq to'lamaydi.**

Ta'mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, **o'sha yuridik shaxslar soliq to'laydi.**

Qurilish ishlari *yangi qurilish maydonchasida* bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun **qurilish tashkiloti soliq to'laydi.**

#### **SK. 444-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi**

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun **soliq bazasi** hisoblanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda *iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi* tushuniladi.

#### **SK. 445-modda. Soliq stavkalari**

Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

## 2023-yil uchun soliq stavkalari

T/r	Soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. m. uchun soliq stavkasi, (so'mda):	
		yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2- va 3-bandlarda ko'rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	265	320
2.	Sanoat korxonalari	570	680
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	90	110

## 2023-yil uchun soliq stavkalari

T/r	Soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. m. uchun soliq stavkasi, (so'mda):	
		yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
4.	Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon ho'jaliklari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	45	45
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2 410	2 410
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	30 500	30 500



### SK. 445-modda. Soliq stavkalari

Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon ho'jaliklari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun nazarda tutilgan soliq stavkasi **0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyentni** hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

### SK. 445-modda. Soliq stavkalari

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan **ortiqcha suv olinganda**, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining **besh baravari miqdorida** belgilanadi.



### **SK. 445-modda. Soliq stavkalari**

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining **beshtaravari miqdorida** belgilanadi.

### **SK. 446-modda. Soliq davri**

**Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.**



## Soliqni hisoblash tartibi

$$\text{Soliq summasi} = \text{Soliq solinadigan baza} \times \text{Soliq stavkasi}$$

**Misol.** 2023-yil uchun sanoat korxonasi tomonidan foydalanilgan umumiy suv hajmi ko'rsatkichlari 9 000 metr kubga teng. Korxonada tomonidan foydalanilgan suv hajmi faqat yer ustidan olinsa:

**Soliq summasi** =  $9000 \times 570$  (soliq stavkasi 1 m.kub uchun) = 5 130 000 so'm

### SK. 447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq organlari soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda quyidagilar uchun soliq summasini aniqlaydi:



- dehqon ho'jaliklari uchun;
- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun;
- tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun;

### **SK. 447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Soliq organlari soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda quyidagilar uchun soliq summasini aniqlaydi:



➤ 1-oktabrga qadar qishloq xo'jaligi korxonalari uchun — qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqlarni yetishtirish (o'stirish) uchun ular tomonidan avvalgi soliq davrida foydalanilgan suv hajmining 70 foizi miqdorida.

Avvalgi soliq davrida qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan foydalanilgan suvning hajmi to'g'risidagi axborot mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq summasi suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatlil organ tomonidan tasdiqlangan suv iste'moli normativlari bo'yicha aniqlanadi.

### **SK. 447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi :

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno — hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay;
- qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabridan kechiktirmay;

**SK. 447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

- O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning **20-yanvaridan kechiktirmay**.



**SK. 447-modda. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi**

Soliq organlari *soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini* dehqon ho'jaliklariga, shuningdek qishloq xo'jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga soliq davridan keyingi yilning **1-martidan kechiktirmay topshiradi**.

### SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha **bo'nak to'lovlarini** to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar; shuningdek dehqon ho'jaliklari va qishloq xo'jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar mustasno.

### SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi

*Bo'nak to'lovlar* miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining **20-yanvaridan** kechiktirmay, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran **o'ttiz kundan** kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi *soliq organlariga* mo'ljallanayotgan soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi **ma'lumotnomani** taqdim etadi.

## SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi

### Hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar:

- soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining *200 baravaridan ko'proqni* tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) — **har oyning 20 sanasidan kechiktirmay** yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;
- soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining *200 baravaridan kamroqni* tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — **har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay** yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida to'lanadi.

## SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, *bundan dehqon xo'jaliklari mustasno*, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, **soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay** amalga oshiriladi.

### **SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi**

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan **10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda**, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya (**0,05 %**) hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

### **SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi**

**Qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan soliq davri uchun soliqni to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

**1-oktabrga qadar —**  
soliq organlari tomonidan  
aniqlangan yillik soliq  
summasining 70 foizi;

**15-dekabrga qadar —**  
soliqning qolgan  
summasi



## SK. 448-modda. Soliq to'lash tartibi

Dehqon ho'jaliklari, shuningdek qishloq xo'jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan soliqni to'lash *yilda bir marta*, soliq davridan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



**DIQQAT SAVOL**

### O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishda ko'zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
3. Soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday tartibda aniqlanadi?
4. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilangan?
5. Qanday suv resurslari soliq solish obyekti bo'lmaydi?
6. Yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni qanday muddatda to'laydilar?
7. Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqning hisoboti soliq organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?
8. Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqni to'lash qanday muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi?
9. Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi qanday huquqqa ega?


## “YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANI

### 10 - MAVZU: YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ



#### REJA:

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar, soliq solish obyekti va soliq bazasi.
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari.
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.




O'zbekiston mustaqillikka crishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi.

O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin mineral xom-ashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud.

Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyati 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.



O'zbekistonda 2002-yil 13-dekabrda ***“Yer osti boyliklari to'g'risida”***gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo'lib, yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
QONUNI

**“Yer osti boyliklari to‘g‘risida”**

**4-modda. Yer osti boyliklariga egalik qilish**

Yer osti boyliklari O‘zbekiston Respublikasining mulki bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
QONUNI

**“Yer osti boyliklari to‘g‘risida”**


**21-modda. Yer qa‘ridan foydalanganlik  
uchun haq to‘lash**

Yer qa‘ridan foydalanish pullikdir, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yerosti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq 1995-yildan boshlab yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yerosti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

### Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi (foizda)




- 2019-yil
- 2020-yil
- 2021-yil
- 2022-yil
- 2023-yil\*

\* Proqnoz ko'rsatkichi


**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modd**

**Yer qa'ridan foydalanganlik uchun  
soliq (qurilish materiallari bo'yicha  
yer qa'ridan foydalanganlik uchun  
soliqdan tashqari)**



**O'zbekiston Respublikasining  
Respublika budjetiga**

**Qurilish materiallari bo'yicha yer  
qa'ridan foydalanganlik uchun  
soliq**



**tumanlar va shaharlar  
budjetlariga to'liq hajmda  
o'tkaziladi**

**SK. 449-modd. Soliq to'lovchilar**

**O'zbekiston Respublikasi hududida yer qa'ridan  
foydali qazilmalarni qazib olishni va texnogen mineral  
hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga  
oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan  
foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilari deb  
e'tirof etiladi.**

Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha *soliq to'lovchilar bo'lmaydi.*



#### SK. 450-modda. Soliq solish obykti

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun **soliq solish obykti** quyidagilardir:

- foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi;
- qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarning, shuningdek noyob elementlarning va noyob yer elementlarining haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi.

#### SK. 450-modda. Soliq solish obyekti

**Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi** qazib olish (ajratib olish), birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan *texnologik yo'qotishlar hajmini* chegirgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa — soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanadi.

#### SK. 450-modda. Soliq solish obyekti

**Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:**

- soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda shaxsiy xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan, *keng tarqalgan foydali qazilmalar*;
- qonunchilikda belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) *noruda foydali qazilmalar*, bundan realizatsiya qilingan foydali qazilmaning hajmi mustasno.



**SK. 451-modda. Soliq bazasi**

**Soliq bazasi** soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga nisbatan aniqlanadi.

**SK. 451-modda. Soliq bazasi**


**Quyidagilar soliq bazasidir:**

- qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma hajmining qiymati;
- qazib olingan (ajratib olingan) qora, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarning, shuningdek noyob elementlarning va noyob yer elementlarining haqiqatda realizatsiya qilingan hajmi qiymati.

### SK. 451-modda. Soliq bazasi

**Soliq bazasi** soliq (hisobot) davri boshlanganidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi va soliq (hisobot) davri uchun *o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi* bo'yicha hisob-kitob qilinadi.


### SK. 451-modda. Soliq bazasi



## SK. 451-modda. Soliq bazasi

Soliq (hisobot) davri uchun **o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi** har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha *pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini* (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) *naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga* bo'lish orqali alohida aniqlanadi.

Hisobot davrida **o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi** quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:



### MISOL-1

**Realizatsiya amalga oshirilgan oy uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash:**

2023-yil yanvar oyida korxonada 40 kub m.etr kaliy tuzi (texnologik yo'qotishlarni hisobga olgan holda) qazib olgan.

Shu oyda umumiy qiymati 15 750 000 so'm bo'lgan 35 kub m.etr kaliy tuzi realizatsiya bo'lgan. Hisobot oyi uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi 450 000 so'mni tashkil etadi (15 750 000 : 35).

### MISOL-1 (davomi)

**Soliq bazasi:** 18 000 000 so'm (40 x 450 000).

**Kaliy tuzi uchun soliq stavkasi:** 3,5 %, biroq 5 000 so'm/kub m. dan kam bo'lmagan.

**Foiz stavkasi bo'yicha soliq summasi:** 630 000 so'm (18 000 000 x 3,5 %).

**Qat'iy stavka bo'yicha soliq summasi bir birlik uchun:** 200 000 so'm (40 x 5 000).

Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori qat'iy stavka bo'yicha soliq miqdoridan katta bo'lganligi uchun yanvar oyidagi soliq summasi 630 000 so'mni tashkil etadi.

## SK. 451-modda. Soliq bazasi

Agar qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilsa, **soliq bazasi** qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## MISOL-2

Foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilsa yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash:

Korxonada 2023-yil fevral oyida 50 kub m. miqdorida (yo'qotishlarni hisobga olgan holda) tosh tuzi (ovqatga ishlatiladigani) qazib olgan.

Korxonada mazkur oyda ushbu kon-kimyo xomashyosining 48 kub m.etrini realizatsiya qilgan va 2 kub m.etrini o'z ehtiyojlari uchun ishlatgan.

48 kub m. xom ashyo umumiy qiymati 16 800 000 so'mga sotildi. Fevral oyida o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi 1 kub m. uchun 350 000 so'mni tashkil etadi ( $16\,800\,000 : 48$ ).

## MISOL-2 (davomi)

Fevral oyi uchun soliq bazasi qazib olingan foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

$$50 \times 350\,000 = 17\,500\,000 \text{ ming so'm.}$$

Tosh tuziga (ovqatga ishlatiladigani) soliq stavkasi: 3,5 %, biroq 5 000 so'm/kub m. dan kam bo'lmagan.

Foiz stavkasi bo'yicha soliq summasi: 612 500 so'mni tashkil etadi ( $17\,500\,000 \times 3,5\%$ ).

Qat'iy stavka bo'yicha soliq summasi: 250 000 so'm ( $50 \times 5\,000$ ).

Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori qat'iy stavka bo'yicha soliq miqdoridan katta bo'lganligi uchun fevral oyidagi soliq summasi 612 500 so'mni tashkil etadi.

\\

## SK. 451-modda. Soliq bazasi

Soliq (hisobot) davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, **soliq bazasi** realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi soliq (hisobot) davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning *o'rtacha olingan narxidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### MISOL-3

**Realizatsiya amalga oshirilmagan oy uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash:**

Korxonada 2023-yil fevral oyida **50 kub m.** miqdorida (yo'qotishlarni hisobga olgan holda) tosh tuzi (ovqatga ishlatiladigani) qazib olgan.

Korxonada mazkur oyda ushbu kon-kimyo xomashyosini realizatsiya qilmagan.

Realizatsiya amalga oshirilgan oxirgi hisobot davri – 2022-yil dekabr oyi hisoblanadi. Shunda umumiy qiymati **8 000 000 so'm** bo'lgan **20 kub m.** tosh tuzi (ovqatga ishlatiladigani) sotilgan.

### MISOL-3 (davomi)

Dekabr oyi uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi 1 kub m. uchun – 400 000 so'mni tashkil etadi ( $8\,000\,000 : 20$ ).

Fevral oyi uchun soliq bazasi – 20 000 000 so'm ( $50 \times 400\,000$ ).

Tosh tuziga (ovqatga ishlatiladigani) soliq stavkasi: 3,5 %, biroq 5 000 so'm/kub m. dan kam bo'lmagan.

**Foiz stavkasi bo'yicha soliq summasi:** 700 000 so'mni tashkil etadi. ( $20\,000\,000 \times 3,5\%$ ).

**Qat'iy stavka bo'yicha soliq summasi:** 250 000 so'm ( $50 \times 5\,000$ ).

Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori qat'iy stavka bo'yicha soliq miqdoridan katta bo'lganligi uchun fevral oyidagi soliq summasi **700 000 so'mni** tashkil etadi.

### **SK. 451-modda. Soliq bazasi**

Foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) boshlanganidan buyon ular realizatsiya qilinmagan taqdirda, **soliq bazasi** soliq (hisobot) davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) 20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### **SK. 451-modda. Soliq bazasi**

Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan birinchi hisobot davrida hisoblangan soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o'rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi **tuzatishni kiritishi shart.**



#### MISOL-4

**Foydali qazilmalarni qazib olish boshlanganidan buyon ular realizatsiya qilinmagan taqdirda soliqni hisoblash:**

Korxonada 2023-yil yanvar oyida tosh tuzi (ovqatga ishlatiladigani) qazib olishni boshlagan.

Korxonada mazkur oyda **30 kub m.** ushbu kon-kimyo xomashyosini (yo'qotishlarni hisobga olgan holda) qazib olgan.

Foydali qazilmani qazib olish boshlangunga qadar ular umuman realizatsiya qilinmaganligi bois *soliq bazasi* mazkur foydali qazilmani qazib olishning *20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.

#### MISOL-4 (davomi)

Qazib olingan jami hajmning ishlab chiqarish tannarxi **9 000 000** so'mni tashkil etgan holda soliq bazasi **10 800 000** so'mni tashkil etadi ( $9\,000\,000 \times 120\%$ ).

Tosh tuziga (ovqatga ishlatiladigani) soliq stavkasi: **3,5 %**, biroq **5 000** so'm/kub m. dan kam bo'lmagan.

**Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori:** **378 000** so'mni tashkil etadi. ( $10\,800\,000 \times 3,5\%$ ).

**Qat'iy stavka bo'yicha soliq summasi:** **150 000** so'm ( $30 \times 5\,000$ ).

Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori qat'iy stavka bo'yicha soliq miqdoridan katta bo'lgani uchun yanvar oyi uchun soliq **378 000** so'm miqdorida to'lanadi.

#### MISOL-4 (davomi)

Tosh (ovqatga ishlatiladigani) tuzining dastlabki realizatsiyasi 2023-yil fevral oyida amalga oshirildi.

Mazkur oyda umumiy qiymati **8 000 000** so'm bo'lgan **20 kub metr** tosh (ovqatga ishlatiladigani) tuzi sotildi.

Fevral oyida 1 kub uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi – **400 000** so'mni tashkil etadi ( $8\,000\,000 : 20$ ).

Korxonada 2023-yil fevral oyida fevral oyining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda yanvar oyi uchun hisoblangan soliq miqdoriga tuzatish kiritishi shart.

Korxonada yanvar oyi uchun qo'shimcha – **42 000** so'm miqdorida soliq to'lash lozim ( $(30 \times 400\,000 \times 3,5\%) - 378\,000$ ).

#### SK. 451-modda. Soliq bazasi

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan to'laligicha shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda **soliq bazasi** qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning *20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### MISOL-5

**Qazib olingan foydali qazilmadan to'laligicha shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda soliqni hisoblash:**

Korxonada 2023-yil yanvar oyida kaliy tuzini qazib olishni boshlagan.

Korxonada mazkur oyda **30 kub m.** ushbu kon-kimyo xomashyosini (yo'qotishlarni hisobga olgan holda) qazib olgan.

Kon-kimyo xomashyosi to'laligicha shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladi.

Mazkur holatda soliq bazasi mazkur foydali qazilmani qazib olishning *20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan* kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### MISOL-5 (davomi)

Qazib olingan jami hajmning ishlab chiqarish tannarxi **7 500 000** so'mni tashkil etgan holda soliq bazasi **9 000 000** so'mni tashkil etadi ( $7\,500\,000 \times 120\%$ ).

Kaliy tuziga soliq stavkasi: **3,5 %**, biroq **5 000 so'm/kub m.** dan kam bo'lmagan.

**Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori:** **315 000** so'mni tashkil etadi ( $9\,000\,000 \times 3,5\%$ ).

**Qat'iy stavka bo'yicha soliq summasi:** **150 000** so'm ( $30 \times 5\,000$ ).

Foiz stavkasi bo'yicha soliq miqdori qat'iy stavka bo'yicha soliq miqdoridan katta bo'lgani uchun yanvar oyi uchun soliq **315 000** so'm miqdorida to'lanadi.

### SK. 452-modda. Soliq stavkalari



Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Energiya manbalari	Neft, tabiiy gaz, gaz kondensati	10
		Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	5
		Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
		Ko'mir, yonuvchi slanslar	4
2.	Qimmatbaho metallar	Oltin, kumush, palladiy, platina va platina guruhi, osmiy va boshqa qimmatbaho metallar	7
3.	Rangli metallar	Mis, qo'rg'oshin, rux, molibden, nikel, kobalt, qalay, surma, simob, alyuminiy	7
		Boshqa rangli metallar	10

### SK. 452-modda. Soliq stavkalari



T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
4.	Radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	Uran, toriy, radiy	8
		Volfram	2,7
		Reniy, selen, tellur, indiy, vismut, tantal, niobiy, berilliy, litiy, rubidiy, seziiy, galiy, titan, sirkoniy, gafniy, talliy, kadmiiy	8
		Lantan va lantanoidlar, itriy, skandiy	8
		Boshqa radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	8
5.	Nodir tosh xomashyosi	Feruz, listvenit, rodonit, zmejevskiy, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit va boshqa qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	10



### SK. 452-modda. Soliq stavkalari



T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
6.	Qora metallar	Temir	2
		Titan, marganets, xrom, vanadiy va boshqa qora metallar	4
7.	Kon-kimyo xomashyosi	Mineral pigmentlar	5.5
		Yod	4.8
		Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o'g'itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xomashyosi	3.5, biroq 5 000 so'm/kub m. dan kam bo'lmagan

### SK. 452-modda. Soliq stavkalari



T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
8.	Kon-ruda xomashyosi	Eruvchan shpat, dala shpati xomashyosi, kvars va kvarsit, kaolin (realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha), tabiiy grafit	7.9
		Shisha xomashyosi, kvars qum, brusit marmar	3
		Talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xomashyosi, felzit	4
		Serpentinit va boshqa kon-ruda xomashyosi	5

### SK. 452-modda. Soliq stavkalari

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
9.	Noruda qurilish materiallari	Sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xomashyosi	5
		Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	22 500 so'm tonna*
		Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, gips toshli, gips va anhidrid, ganch, marmar, ohaktosh-chiq'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomatlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granular, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirilar, diabaz-porfirilar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	5, biroq 5 000 so'm kub m. dan kam bo'lmagan
		G'isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi	5, biroq 3 750 so'm kub m. dan kam bo'lmagan
		Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh, farfor xomashyosi, keranzit xomashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, peliti tuffilar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, glyeij, andezitbazalt, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit — gematitli jinslar va boshqa nonda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar	5


### SK. 452-modda. Soliq stavkalari

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
10.	Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun soliq stavkasining 50 foizi	


**Izoh:** \*Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek ularga sement xomashyosi — ohaktoshni realizatsiya qiladigan soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadi.

Sement ishlab chiqarish uchun faqat ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

**SK. 453-modda. Soliq davri. Hisobot davri**



**SK. 453-modda. Soliq davri. Hisobot davri**



**SK. 454-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

Soliq to'lovchilar soliqni soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.



Foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo'lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

**SK. 454-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisoboti har bir hisobot va soliq davri tugagandan keyin soliq hisobida turgan joydagi, noruda qurilish materiallari bo'yicha esa — qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

*yuridik shaxslar tomonidan* — soliq davri boshlanganidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay;

*jismoniy shaxslar tomonidan* — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

∞



**SK. 454-modda. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi**

**Soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:**

**yuridik shaxslar tomonidan — har oyda keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay;**

**jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.**



**DIQQAT SAVOL**

**O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?
3. Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi bo'lgan qanday yirik korxonalarni bilasiz?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to'g'ri keladi?
5. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?
7. Hozirgi vaqtda yer osti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?
8. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
9. Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq so'lish obyekti bo'ladimi?
10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?
11. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA  
TORTISH” FANI**

**11 - MAVZU: YURIDIK  
SHAXSLARDAN  
UNDIRILADIGAN YIG‘IMLAR**



---

**REJA:**

1. Yig‘imlarning turlari va to‘lovchilari.
  2. Yig‘im solish obykti va bazasi.
  3. Yig‘imlarni to‘lash tartibi.
-



## SK. 16-modda. Soliqlar va yig'imlar

**Yig'im** deganda budjet tizimiga Soliq kodeksida yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi.




## SK. 65-BOB. YIG'IMLAR 455-modda. Yig'imlarning turlari

**Yig'imlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**


- 1) chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im;
- 2) alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlar, jumladan:
  - alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig'im;
  - umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'im.



**SK. 65-BOB. YIG'IMLAR**  
**455-modda. Yig'imlarning turlari**



**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda**  
**"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti**  
**to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modda**





O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni, 12-modda

Chet davlatlar  
avtotransport  
vositalarining  
O'zbekiston  
Respublikasi  
hududiga kirganligi  
va uning hududi  
orqali tranziti  
uchun yig'im




Qoraqalpog'iston  
Respublikasining  
respublika budjetiga,  
viloyatlarning viloyat  
budjetlariga va Toshkent  
shahrining shahar  
budjetiga to'liq hajmda  
o'tkaziladi



SK. 456-modda. Soliq to'lovchilar

Amaldagi Soliq kodeksining 456-moddasiga muvofiq,  
yig'imning to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:


Chet davlatlar  
avtotransport  
vositalarining  
*egalari* yoki ulardan  
*foydalanuvchilar*



ushbu vositalarning  
O'zbekiston  
Respublikasi hududiga  
kirganligi va uning  
hududi orqali tranziti  
uchun

**Amaldagi Soliq kodeksining 456-moddasiga muvofiq, yig'imning soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:**

Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qiluvchi *korxonalar* hamda *umumiy ovqatlanish korxonalari* tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish boshlanganligi haqida vakolatli davlat organi xabardor qilinganligi to'g'risidagi tasdiqnomaga ega bo'lgan yuridik shaxslar



alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im



### **SK. 457-modda. Soliq solish obykti**

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi *hududiga kirishi* va uning *hududi orqali tranziti* yig'imlarning **soliq solish obyektidir.**



## SK. 458-modda. Soliq bazasi

Chet davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda va uning hududi orqali tranzit o'tayotganda *soliq bazasi* hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi  
O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

2023-yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'implarning stavkalari

T/r	Yig'im turi	Bitta avtotransport (avtopoyezd) uchun yig'im stavkasi (AQSh dollarida)
1.	Chet davlatlar yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im (bundan 2-7 bandlarda ko'rsatilgan davlatlar mustasno)	400
2.	Tojikiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im, yuk ko'tarish quvvatlari:	
-	10 tonnagacha	100
-	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
-	20 tonnadan yuqori	200



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi  
O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

2023-yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'implarning stavkalari

<b>№</b>	<b>Yig'im turi</b>	<b>Bitta avtotransport (avtopoyezd) uchun yig'im stavkasi (AQSh dollarida)</b>
3.	Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im	300
4.	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im	300



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi  
O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

2023-yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'implarning stavkalari

<b>№</b>	<b>Yig'im turi</b>	<b>Bitta avtotransport (avtopoyezd) uchun yig'im stavkasi (AQSh dollarida)</b>
5.	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im, yuk ko'tarish quvvatlari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150





O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi  
O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

2023-yil uchun chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'implarning stavkalari

№	Yig'im turi	Bitta avtotransport (avtopoyezd) uchun yig'im stavkasi (AQSh dollarida)
6.	Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im	150
7.	Afg'oniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im	50



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

**Izohlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab chet davlatlarning og'ir vazinli va yirik gabaritli yuk avtotransport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

**Izohlar:**

2. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o'tishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo'shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.



O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuniga 10-ilova

**Izohlar:**

3. Gumanitar yuklarni olib o'tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig'implar stavkasiga nisbatan **0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent** qo'llaniladi.

4. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.



**O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda  
"2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti  
to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuniga 9-ilova**

**2023-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish  
huquqi uchun yig'imlarning cheklangan stavkalari**

№	Yig'im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so'mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri, viloyat markazi bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Alkohol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun undiriladigan yig'im Umumiy ovqatlanish korxonalaridan alkogol	1 200 000	840 000	600 000	300 000
2.	mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun undiriladigan yig'im	600 000	420 000	300 000	150 000



**SK. 460-modda. Yig'imlarni to'lash tartibi**

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda undiriladi.



## SK. 460-modda. Yig'imlarni to'lash tartibi

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish boshlanganligi to'g'risida xabarnoma yuborilgan paytdan e'tiboran to'lanadi.

*Bunda xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasiga qadar yuborilganda yig'im ushbu oy uchun to'liq hajmda, xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasidan keyin yuborilganda esa keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab hisoblab chiqariladi.*



## SK. 460-modda. Yig'imlarni to'lash tartibi

Agar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan realizatsiya qilish bir nechta statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlari orqali amalga oshirilsa, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlar belgilangan stavkalar doirasida statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlarining soniga, shuningdek ularning har biri joylashgan hudud o'lchamlariga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi hamda undiriladi.



**SK. 460-modda. Yig'implarni to'lash tartibi**

Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish **faoliyati to'xtatib turilganda yoki tugatilganda** yig'imni hisoblab chiqarish *keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to'xtatib turiladi.*



**SK. 460-modda. Yig'implarni to'lash tartibi**

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im *har oyda oldindan to'lov tarzida, joriy oyning o'ninchi sanasiga qadar to'lanadi.*



**DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im qachon va nima maqsadda joriy etilgan?
2. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imning to'lovchilari kimlar?
3. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imning stavkalari qanday tartibda va qaysi mezonlarga asosan belgilanadi?
4. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imining soliq solish obyekti nima?
5. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni to'liq va o'z vaqtida undirilishini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
6. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imini hisoblash qanday amalga oshiriladi?



**DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

7. Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imi qanday muddatda to'lanadi?
8. Yig'imlar deganda nimani tushunasiz?
9. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im Soliq kodeksining qaysi moddalariga asosan undiriladi?
10. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari kimlar?
11. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imning obyekti nima?
12. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im qancha miqdorda undiriladi?
13. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imning stavkasi qanday belgilanadi?
14. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?
15. Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imni o'z vaqtida to'lanishi ustidan javobgarlik kimning zimmasiga yuklangan?

## YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH FANI

### 12 - MAVZU: SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



### REJA:

1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

## 1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari



**SK. 47A-modd. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim *solliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari* nazarda tutiladi.**



**SK. 471-modd. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari  
ishirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.**

**SK. 471-modd. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari  
ishirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari**

**Ushbu yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTNING  
FARMONI  
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XUSUSIY  
XORIJIY INVESTITSIYALARNI  
JALB ETISHNI  
RAG'BATLANTIRISH  
BORASIDAGI QO'SHIMCHA  
CHORA-TADBIRLAR  
TO'G'RISIDA  
(2005-yil 11-aprel, PF-3594-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-3594-son Farmoni

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalariga quyidagi to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida *yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq* bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;
- 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha — 5 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli Farmoniga ilova**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan  
imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati**

1. Radioelektron sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.
2. Yengil sanoat:
  - tayyor ip gazlama, jun gazlama va aralash gazlamalar, shuningdek trikotaj gazlama ishlab chiqarish;
  - tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;
  - tabiiy terilar ishlab chiqarish, ko'n-galantereya sanoati, poyabzal sanoati.
3. Ipakchilik sanoati:
  - shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.
4. Qurilish materiallari sanoati:  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-martdagi PF-3586-sonli Farmoni la-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli Farmoniga ilova**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan  
imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati**

5. Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida yetishtirish.
6. Oziq-ovqat sanoati:
  - mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).
7. Go'sht-sut sanoati:
  - go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog', shuningdek hayvonlarning ichki organlaridan qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarish.
8. Baliq lichinkalari va chavoqlarini ishlab chiqarish, baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash hamda konservalash.
9. Kimyo sanoati.
10. Neft-kimyo sanoati.
  - Tibbiyot sanoati, shuningdek veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.

**Ўзбекистон Республикаси Президентining  
2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli Farmoniga ilova**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan  
imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati**

11. Tibbiyot sanoati, shuningdek veterinariya uchun dori vositalarini ishlab chiqarish
12. Qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish.
13. Muqobil energiya manbalari negizida elektr stansiyalari qurish.
14. Ko'mir sanoati:
  - ko'mirni boyitish;
  - ko'mir briketlarini ishlab chiqarish;
  - slanets sanoati.
15. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan elektroferrosplav va metall buyumlarni ishlab chiqarish.
16. Mashinasozlik va metallga ishlov berish:
  - mashinasozlik;
  - traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi;
  - qurilish, yo'l va kommunal mashinasozlik.

**Ўзбекистон Республикаси Президентining  
2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli Farmoniga ilova**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan  
imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati**

17. Stanoksozlik va asbobsozlik sanoati.
18. Shisha va chinni-fayans sanoati.
19. Mikrobiologiya sanoati.
20. O'yinchoqlar ishlab chiqarish.
21. Turizm:
  - mehmonxona xizmatlari;
  - turizm xizmatlari;
  - tematik xiyobonlarni tashkil qilish (turli yoshdagi tashrif buyuruvchilarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatuvchi bitta yoki bir nechta mavzu bo'yicha tashkil qilingan ko'ngilochar xiyobon, xiyobonlar ansambli).
22. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'riidan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PP-3594-son Karmoni

Yuqorida qayd etilgan soliqlar bo'yicha *imtiyozlar* ko'rsatib o'tilgan korxonalarni **Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan** tashqari respublikaning barcha shaharlari va aholi yashash joylarida joylashtirishda qo'llanilishi belgilangan.

Bunday hududiy cheklov turizm va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarga tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'riidan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PP-3594-son Karmoni

Mazkur soliqlar bo'yicha *imtiyoz* olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan keyin **bir yil barvaqtroq faoliyatini to'xtatgan** taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazish va xorijiy investorning kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat berilgan imtiyozlar summasini budjetga qaytargandan keyin amalga oshiriladi.

**SK 471-madda. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari  
Ibtidodidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari**

**To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.**

**SK 472-madda. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari  
Ishirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash  
tartibi**

**Yuqorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo'llaniladi:**

- yuridik shaxslar qonunchilikda belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda;
- chet el investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;

**SK 472-moddagi To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokida yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi**

**Yuqorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo'llaniladi:**

- yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida **33 foiz**, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida **15 foiz** bo'lganda;
- chet el investitsiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

**Erkin ayirboshlanadigan valyutalar:**

1.  AQSh dollari
2.  Yevro
3.  Britaniya funt sterlingi
4.  Yapon iyenasi
5.  Shveysariya franki
6.  Kanada dollari
7.  Avstraliya dollari
8.  Shved kronasi (2003-yil sentabridan)
9.  Daniya kroni
10.  Norvegiya kronasi
11.  Singapur dollari
12.  Gonkong dollari (2004-yil dekabridan)
13.  Janubiy Koreya woni
14.  Yangi Zelandiya dollari
15.  Janubiy Afrika randi
16.  Meksika pesosi (2008-yil maydan)
17.  Isroil yangi shekel
18.  Vengriya torinti (2015-yil noyabridan)



**SK. 472-moddasi To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi**

**Yuqorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo'llaniladi:**

- Soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida **50 foizi** ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo'naltirilganda.

**SK. 472-moddasi To'g'ridan-to'g'ri umumiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi**

Soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs **imtiyozlar berilgan muddat o'tganidan keyin bir yil o'tmasidan oldin** faoliyatini tugatgan taqdirda, *chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish* faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o'mi budjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.



**SK. 472-moddasi to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarida ishtirokida yuridik shaxslar tomonidan soliqlar imtiyozlarini qo'llash tartibi**

Yuqorida nazarda tutilgan shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, Soliq kodeksining 471-moddasida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olgan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan davr uchun soliqlar Soliq kodeksining VIII bo'limida nazarda tutilgan **penyalar** qo'llanilgan holda, umumbelgilangan tartibda to'lanadi.

## **2. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**



**SK. 473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarning  
ishtirokchilariga soliq solish shartlari**

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, **mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqlardan** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan *belgilangan muddatga ozod qilish* tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

**SK. 473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarning  
ishtirokchilariga soliq solish shartlari**

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab:

- 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun — 3 yil muddatga;
- 5 million AQSh dollaridan 15 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun — 5 yil muddatga;
- 15 million AQSh dollari va undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun — 10 yil muddatga ozod etiladi.

**SK. 473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarining  
ishtirokchilariga soliq solish shartlari**

Yuqorida nazarda tutilgan **soliq imtiyozlari** faqat *investor (investorlar)* va *Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o'rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimda* nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

**SK. 473-modda. Maxsus iqtisodiy zonalarining  
ishtirokchilariga soliq solish shartlari**

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari **qo'shilgan qiymat solig'i** va boshqa soliqlar bo'yicha imtiyozlardan Soliq kodeksiga muvofiq foydalaniladilar.



**SK. 474-moddā. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarī  
tomonidan soliq imtiyozlarini qoʻllash tartibi**

Yuqorida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati **maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan eʼtiboran** hisoblab chiqariladi.

Foyda soligʻi boʻyicha imtiyozlarning amal qilish muddati **maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish (xizmatlar koʻrsatish) obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan eʼtiboran** hisoblanadi.

**SK. 474-moddā. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarī  
tomonidan soliq imtiyozlarini qoʻllash tartibi**

**Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oying birinchi kunidan eʼtiboran foydalanishga haqli emas.**

## SK 474-modda. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining **amal qilish muddatini uzaytirishga haqli**.

Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo'lgan *huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kuni*dan e'tiboran qo'llaniladi.

### 3. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari



## SK. 475-moddâ. Umumiy qoidalar

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo'lib, bu shartnomaga muvofiq *O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida* hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

- hisob yuritish va hisobot berish tartibi;
- soliq solish va boshqa to'lovlarni to'lash shartlari;
- chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

## SK. 476-moddâ. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan Soliq to'g'ri soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Chet ellik investor, bundan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida **Soliq kodeksining 17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to'laydi.**

SK. 476-modda. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Yuqorida nazarda tutilgan soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, **O'zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.**

SK. 476-modda. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

**Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:**

1) *foyda solig'i* mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromad bo'yicha va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha olingan daromad bo'yicha alohida-alohida to'lanadi.

Bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo'lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymati mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromadlar bo'yicha foyda solig'i solish obyektidir;

**SK. 476-modd. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

**2) mineral xomashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan *yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.***


**SK. 476-modd. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo'ladi.

Bunda yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma olgan investor bir oylik muddatda soliq organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo'lib ish yuritadigan ishtirokchi to'g'risida xabardor etishi shart.



#### 4. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari



#### SK. 480<sup>1</sup>-modda. Umumiy qoidalar

O'zbekiston Respublikasining alohida hududlarida Soliq kodeksining 480<sup>2</sup>-moddasida belgilangan **maxsus soliq stavkalari** qo'llanilishini nazarda tutuvchi soliq solishning alohida tartibi belgilanishi mumkin.

### **SK 480<sup>1</sup>-modda. Umumiy qoidalar**

**Soliq solishning alohida tartibiga ega O'zbekiston Respublikasining alohida hududlari quyidagilardan iborat:**

- Farg'ona viloyatining So'x tumani,
- Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi,
- Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa-2 ko'chasi.

### **SK 480<sup>2</sup>-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

**O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:**

1) foyda solig'i bo'yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq organida hisobda turgan va ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatdan daromadlar olayotgan soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi;

**SK. 480<sup>2</sup>-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

**2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha — 1 foiz.** Mazkur soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish chog'ida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i *har chorakda yigirma besh ming so'm miqdorida to'lanadi*;

**SK. 480<sup>2</sup>-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari**

**3) ijtimoiy soliq bo'yicha:**

yuridik shaxslar uchun (bundan budget tashkilotlari mustasno) — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondiga nisbatan qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — *yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida*;

**SK 480<sup>2</sup>-modd.** O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

**4) aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha** — *1 foiz*. Mazkur soliq stavkasi soliq to'lovchilarga nisbatan ular tushumining O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatidan olinadigan qismiga nisbatan qo'llaniladi.

**SK 480<sup>2</sup>-modd.** O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining alohida hududlarida joylashgan *ko'chmas mulk obyektlariga va yer uchastkalariga*, shuningdek ushbu hududlarda foydalani-ladigan *suv resurslariga* nisbatan belgilangan mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga **0,1 koeffitsiyent** qo'llaniladi.



**DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Chet el investitsiyalari deganda nima tushunasiz?
2. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari deganda nima tushunasiz?
3. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar haqida nimalar bilasiz?
4. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning qanday shartlarini bilasiz?
5. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarni izohlang.
6. Maxsus iqtisodiy zonalar deganda nima tushunasiz?
7. Qanday maxsus iqtisodiy zonalarni bilasiz?
8. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari nimalardan iborat?
9. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, qanday soliqlardan soliq imtiyozlari beriladi?



**DIQQAT SAVOL**

### **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOLLAR:**

10. Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqlimi?
11. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyat deganda qanday faoliyat tushuniladi? Mahsulot taqsimotiga oid bitimda qanday tartib va shartlar nazarda tutiladi?
12. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Soliq solishning alohida tartibiga ega O'zbekiston Respublikasining qanday alohida hududlarini bilasiz?
14. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
15. Soliq solishning alohida tartibiga ega O'zbekiston Respublikasining alohida hududlarida qaysi soliq turlari va soliq stavkalarining qanday miqdorlari qo'llaniladi?



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**  
**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH”**  
**KAFEDRASI**



**“YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANI**

# **13-MAVZU: DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI QO‘LLANILISHI**

## **REJA:**

1. Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarga oid amaliyotda qo‘llanilayotgan dasturiy mahsullar va interaktiv xizmatlarni joriy qilinishi hamda ahamiyati.
2. Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarni soliqqa tortishga doir dasturiy mahsullar va ularning mohiyati.
3. Interaktiv xizmatlar va ulardan foydalanish holati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 4-avgustdagi "Soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi 157-son Qarori davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda soliq to'lovchilarga axborot xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlar va hisob-kitoblar taqdim etishda elektron hujjat aylanishini joriy etish maqsadida qabul qilingan.

Ushbu qaror bilan 2006–2010-yillarda soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini takomillashtirish dasturi tasdiqlangan. Dasturning 4.1-bandida Modem aloqasi apparatlari bilan ta'minlangan, axborot saqlash qurilmalarining ishonchliligi, sig'imi bo'yicha ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan serverlar bilan qo'shimcha ravishda jihozlash (serverlar va modemlar sotib olish, shuningdek Davlat soliq qo'mitasining markaziy apparati binosida klaster tizimini yaratish) belgilangan.

## **Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ) dasturiy majmuasining takomillashtirilishi:**

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchi yuridik shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlarini yuritilishi 1995-yildan buyon avtomatlashtirilgan bo'lib, SIAIJ dasturiy majmuasi hozirgi kunga qadar takomillashtirib kelinmoqda. Jumladan:

- SIAIJ – 1 (1995-yil)
- SIAIJ – 2 (2000-yil)
- SIAIJ – 3 (2004-yil)
- SIAIJ – 4 (2010-yil)
- SIAIJ – 5 (2018-yil)

## **Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:**

- soliq to'lovchi – yuridik shaxslar ro'yxatga olinadi;
- korxonalarining yagona reyestri yuritiladi;
- soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalari yuritiladi;
- bank hujjatlari qayta ishlanadi;
- turli statistik hisobotlar olinadi;
- tekshiruv dalolatnomalari yuritiladi;
- soliq to'lovchilarning budget bilan hisob-kitoblari amalga oshiriladi;
- soliq to'lovchilar bilan solishtirma dalolatnomalar bajariladi;
- ro'yxatga olish bo'yicha turli hisobotlar shakllantiriladi;
- inkasso topshiriqnomalari va xulosalar bilan ishlanadi.




### **SIAIJ-3 dasturiy majmuasi yordamida avtomatlashtirilgan vazifalar:**

- soliq to'lovchini hisobga olish va ularning rekvizitlarini hisobini yuritish;
- soliq majburiyatlari, ya'ni hisoblangan va to'langan soliqlar hisobini yuritish;
- soliq qarzi, shuningdek to'lov muddati uzaytirilgan soliq qarzi va hisoblangan penya summalari va ularni undirish maqsadida qo'yilgan inkasso talabnomalari hisobini yuritish;
- Respublika komissiyasi bayonnomalari va boshqa qonun hujjatlariga asosan to'lov muddati uzaytirilgan va hisobdan chiqarilgan soliq qarzlari hamda penyalar hisobini yuritish;
- ortiqcha to'langan mablag'lar va ularni boshqa soliq turidagi soliq qarzi hisobiga o'tkazish yoki soliq to'lovchiga qaytarish yuzasidan hisob-kitoblar;
- tekshiruvlar natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar, moliyaviy jarimalar va penyalar hisobini yuritish.

### **Axborot texnologiyalarning rivojlanishi bilan SIAIJ-3 dasturiy majmuada yuzaga kelgan muammolar:**

- majmua yaratilgan dasturlash tili ma'nan eskirdi (Clipper)
- dasturiy majmuaning ma'lumotlar bazasi tizimi ma'nan eskirdi (Dbf)
- ma'lumotlar bazasiga turli ko'rinishdagi tashqi hujum va ta'sir turlari yuzaga keldi
- DSI-DSB-DSQ pog'onalarida ma'lumotlar almashish uchun har doim qo'shimcha vaqt va ishchi kuchi talab etadi
- DSB va DSQ pog'onalarida soliq to'lovchilar shaxsiy kartochkalarining faqatgina saldo qatorlarini ko'rish bilan chegaralangan


## SIAIJ-3 dasturiy majmuasining ko'rinishidan lavhalar:



## SIAIJ-4 dasturiy majmuasining oldingi dasturiy majmuaga nisbatan farqi va qulayliklari:

- eski dasturdagi barcha operatsiyalar yangi dasturiy mahsulda saqlanib qolindi va yanada takomillashtirildi
- ma'lumotlar bazasi tizimi modernizatsiyalashtirildi (Oracle), xavfsizligi kuchaytirilib, tashqi ta'sirlardan to'liq himoyalandi
- dizayn va majmuaning ishlash texnologiyasi zamonaviylashtirildi (web texnologiyasi)
- davlat soliq qo'mitasida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalaridagi barcha ma'lumotlarini ko'rish va to'loqonli tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi
- soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar sifatini va tezligini yanada oshirdi va interaktiv xizmat turlarini yaratish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi.

## SIAIJ-4 dasturiy majmuasi ko'rinishidan lavhalar




## SIAIJ-5 dasturiy majmuasining imkoniyatlari:

- soliq to'lovchilar tomonidan banklarga yuborilgan to'lov topshiriqnomalari va ularning ijrosini ma'lumotlar bazasiga yozib borish;
- soliq tushumlarini shaxsiy hisobvaraqalarda avtomatik tarzda aks ettirish;
- soliq qarzlarni ortiqcha to'lovlar hisobidan bir biriga avtomatik singdirish;
- "DXM" ma'lumotlari asosida YATlarga soliq to'lovlarini avtomatik hisoblash;
- shaxsiy hisobvaraqalardagi manfiy penyani ortiqcha to'lov summasiga qayta qo'shish;
- qoldiq summalarni yildan-yilga avtomatik o'tkazish;
- hisobotlarni qabul qilish vaqtida hisobot summasini shaxsiy hisobvaraqalarga avtomatik o'tkazish;
- soliq qarzi bo'yicha inkasso topshiriqnomalarini avtomatik shakllantirish


## Dasturiy majmuani takomillashtirish natijasida kelgusida amalga oshiriladigan ishlar:

- Markaziy bank, Respublika G'aznachilik markazi, Statistika agentligi va boshqa tashkilotlar bilan elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali Soliq qo'mitasining Respublika Yagona ma'lumotlar bazasida soliq to'lovchilarning bank rekvizitlari va statistik ma'lumotlarni muntazam ONLINE rejimida inventarizatsiya qilib yangilab borish;
- budjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga tushumlarni Markaziy bank yoki Respublika G'aznachiligidan markazlashgan holda elektron tarzda olish va soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettirish;
- soliq qarzi mavjud soliq to'lovchilarning bank hisob-varag'iga elektron tarzda markazlashgan tartibda inkasso talabnomasini yuborish va bankning 2-sonli kartotekasidagi mavjud inkassolarni avtomatik tarzda muntazam inventarizatsiyadan o'tkazib borish;
- Bankdagi hisobvaraqlarida yirik pul aylanmalari aylanayotgan soliq to'lovchilarda soliq majburiyatlarini bajarilishini nazoratga olish.


Shakllarning ekrandagi ko'rinishida standart oynada tasvirlanmaydigan qo'shimcha imkoniyatlarni ko'rish mumkin. Huning uchun «Columns» funktsiyasidan foydalanib, ko'rish uchun kerakli maydonlar belgilab olinadi



## Korxonani STIR bo'yicha izlash



## 02-shakl ma'lumotlarini kiritish



## 04-shakl ma'lumotlarini kiritish

The screenshot shows a web browser window with a form titled "Ma'lumotlarini kiritish". The form contains several input fields and buttons. The fields are organized into two columns.

Ma'lumot turi	Ma'lumotlar	Ma'lumot turi	Ma'lumotlar
1) Ismi	2) Famili	3) Tug'ulgan joyi	4) Tug'ulgan sana
5) Manzili	6) Telefon	7) Elektron pochta	8) Boshqa ma'lumotlar
9) Tug'ulgan kun	10) Tug'ulgan oy	11) Tug'ulgan yil	12) Tug'ulgan vaqti
13) Tug'ulgan joyi	14) Tug'ulgan joyi	15) Tug'ulgan joyi	16) Tug'ulgan joyi
17) Tug'ulgan joyi	18) Tug'ulgan joyi	19) Tug'ulgan joyi	20) Tug'ulgan joyi

Buttons: "Kiritish", "Qaytish", "Bekor qilish".


## 08-shakl ma'lumotlarini kiritish

The screenshot shows a web browser window with a form titled "Ma'lumotlarini kiritish". The form contains several input fields and buttons. The fields are organized into two columns.


Ma'lumot turi	Ma'lumotlar	Ma'lumot turi	Ma'lumotlar
1) Ismi	2) Famili	3) Tug'ulgan joyi	4) Tug'ulgan sana
5) Manzili	6) Telefon	7) Elektron pochta	8) Boshqa ma'lumotlar
9) Tug'ulgan kun	10) Tug'ulgan oy	11) Tug'ulgan yil	12) Tug'ulgan vaqti
13) Tug'ulgan joyi	14) Tug'ulgan joyi	15) Tug'ulgan joyi	16) Tug'ulgan joyi
17) Tug'ulgan joyi	18) Tug'ulgan joyi	19) Tug'ulgan joyi	20) Tug'ulgan joyi

Buttons: "Kiritish", "Qaytish", "Bekor qilish".


## 15-shakl ma'lumotlarini kiritish




## KLS (ShHV) tartibi



## Korxonalar to'lovini kiritish



## Shaxsiy kartochkalarni ko'rish





## Statustlar bo'yicha saralash

Kod	Nomi	Kategoriya	Sifat	Kod	Nomi	Kategoriya	Sifat
1000001	...	...	...	1000001	...	...	...
1000002	...	...	...	1000002	...	...	...
1000003	...	...	...	1000003	...	...	...
1000004	...	...	...	1000004	...	...	...
1000005	...	...	...	1000005	...	...	...
1000006	...	...	...	1000006	...	...	...
1000007	...	...	...	1000007	...	...	...
1000008	...	...	...	1000008	...	...	...
1000009	...	...	...	1000009	...	...	...
1000010	...	...	...	1000010	...	...	...
1000011	...	...	...	1000011	...	...	...
1000012	...	...	...	1000012	...	...	...
1000013	...	...	...	1000013	...	...	...
1000014	...	...	...	1000014	...	...	...
1000015	...	...	...	1000015	...	...	...
1000016	...	...	...	1000016	...	...	...
1000017	...	...	...	1000017	...	...	...
1000018	...	...	...	1000018	...	...	...
1000019	...	...	...	1000019	...	...	...
1000020	...	...	...	1000020	...	...	...

### Davlat xizmatida amaliyotlarini o'z ichiga olgan davlat xizmatlari to'g'risida qo'llanma

1. "Kadrlarga oid ma'lumotlar bazasi" dasturiy mahsuli.
2. "Kompyuter texnikasi hisobini yuritish" dasturiy mahsuli.
3. "Elektron hujjat almashish" dasturiy mahsuli.
4. "Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi" axborot tizimi.
5. "Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish" dasturiy mahsuli.
6. "Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar haqida ma'lumot" dasturiy mahsuli.
7. "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkklar hisobini yuritish" dasturiy mahsuli.
8. "Davlat boji" dasturiy mahsuli.
9. "Jang'arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash" dasturiy mahsuli.
10. "Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash" dasturiy mahsuli.
11. "Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash" dasturiy mahsuli.
12. "Bank-DSQ" dasturiy mahsuli.

Davlat soliq xizmatining kameral nazoratida davlat solig'iga tortishga oid dasturiy mahsulotlar

12. "Davlat budjeti va maqsadli jang'arnalariga tushumlar hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
13. "Soliq inspektorining ish joyi (SLAJ-5)" dasturiy mahsuloti.
14. "To'lovlar monitoringi" dasturiy mahsuloti.
15. "Soliq to'lovchining egaligidagi yer fondi" dasturiy mahsuloti.
16. "Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
17. "Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarni qabul qilish" dasturiy mahsuloti.
18. "Soliq to'lovchilar tarixi" dasturiy mahsuloti.
19. "Tashqi manba" dasturiy mahsuloti.
20. "Ijara shartnomalarini hisobga olish" dasturiy mahsuloti.
21. "Majburiy auditorlik tekshiruvi hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
22. "Kameral nazorat" dasturiy mahsuloti.
23. "Avtomatlashtirilgan kameral nazorat" dasturiy mahsuloti.
24. "Soliqqa oid huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini hisobga olish" dasturiy mahsuloti.

Davlat soliq xizmatining onlayn nazoratida davlat solig'iga tortishga oid dasturiy mahsulotlar

25. "Tahlil tahlil" dasturiy mahsuloti.
26. "Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
27. "Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari buyruqlari hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
28. "Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash" dasturiy mahsuloti.
29. "Hisob raqamlarni yopish" dasturiy mahsuloti.
30. "Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalari hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
31. "Onlayn nazorat kassa mashinalari ro'yxatga olish" dasturiy mahsuloti.
32. "To'lovlar monitoringi" dasturiy mahsuloti.
33. "Valyuta kompleksi" dasturiy mahsuloti.
34. "Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish" dasturiy mahsuloti.
35. "Soliq qarzini yuritish hisoboti" dasturiy mahsuloti.
36. "Soliq nizolarini sudgacha ko'rib chiqilishini nazorat qilish" dasturiy mahsuloti.

## Davlat soliq xizmati organlarining interaktiv xizmatlari

Bugungi kunda soliq organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarning soni 44 taga yetkazildi. Shu bilan birga, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali soliqlarni to'lash amalga oshirilmoqda hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar va 27 turdagi hisobotlar yuborilmoqda.

Soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish maqsadida elektron xizmatlar quyidagi talablarga asosan ishlab chiqiladi:

- foydalanuvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish;
- elektron xizmatlarni uzluksiz taqdim etish;
- foydalanuvchilarga tushuntirishlar berish;
- elektron xizmatlarni dolzarbligini ta'minlash;
- idoralararo hamkorlikdan foydalanish;
- xizmat ko'rsatilishida texnik ko'maklashish va maslahat berish.




## Davlat soliq xizmati organlarining interaktiv xizmatlari ro'yxati

Soliq to'lovchi yuridik shaxslarga barcha soliqlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan to'lov topshiriqnomalarini shakllantirish va chop etish imkonini beradi.




## Интерактив хизматлар турлари:




## Интерактив хизматлар турлари:



## Интерактив xizmatlar turlari:




## Интерактив xizmatlar turlari:



## Интерактив xizmatlar turlari:

Yuridik shaxslarning ortiqcha to'langan soliqlar va yig'imlar summalarini hisobga olish va (yoki) qaytarish yuzasidan elektron arizalarni davlat soliq xizmati organlariga yuborish imkoniyati beradi.


Ортиқча тўланган  
солиқ  
суммаларини  
қайтарिश еки



## Интерактив xizmatlar turlari:

Soliq organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha xalqaro kelishuv qoidalarni qo'llash maqsadida murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ekanliklarini tasdiqlab berish.


Резидентлик  
сертификати



## Интерактив xizmatlar turlari:

Soliq organlariga bormasdan turib, fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarini xo'jalik faoliyati amalga oshiriladigan joy bo'yicha tumanlar (shaharlar) soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish uchun elektron ariza va talab qilinadigan hujjatlarni yuborish imkoniyati taqdim etiladi.

Natijada nazorat-kassa mashinalari soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazilib, shaxsan kelib olish sharti bilan fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi beriladi.



## Интерактив xizmatlar turlari:

Soliq qo'mitasi tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari (ariza, shikoyat hamda takliflari)ni Internet orqali qabul qilish va ularni ko'rib chiqish.



## Интерактив xizmatlar turlari:

Қабулга езилиш



Электрон ҳисоб-фактуралар



➤ Yuridik shaxs tomonidan soliq organlarining rahbarlari qabuliga yozilish inkonini taqdim etiladi

➤ Jismoniy shaxslarga mol-mulk va yer soliqlarini ular ishlaydigan korxonaga va tashkilotlar orqali to'lanishi imkoniyati taqdim etiladi. Soliqqa tortiladigan mol-mulki yoki yer uchastkasi bo'yicha soliq qarzdorligi bo'lgan, shuningdek joriy yil uchun hisoblangan soliq to'lovlari mavjud bo'lgan xodimlar ro'yxati korxonaning shaxsiy kabinetida avtomatik ravishda shakllanib turadi. Ish beruvchi korxonaga (tashkilot) o'z xodimining arizasiga muvofiq, ushbu soliqlarni bitta tugmani bosish orqali budjetga o'tkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

➤ Yuridik shaxslar tomonidan elektron hisob-fakturalarni shakllantirish, jo'natish va qabul qilish imkoniyatini beradi.

## Интерактив xizmatlar turlari:



Онлайн-НКМ ва виртуал касса маълумотлари



Ushbu xizmat orqali ishga qabul qilingan pensionerlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi.

Yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan onlayn-НКМ yoki virtual kassa to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi va quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: jo'natilgan arizalar, kassalar ro'yxati, vositachi va komitentlar monitoringi, imtiyozlar, cheklar bo'yicha tushumlar, cheklar bo'yicha hisobot, marketpleys cheklari bo'yicha hisobot, Z hisobot, savdo shoxobchalar tushumi, chekni tiklash, mahsulotlar (xizmat) realizatsiyasi, mening mahsulotlarim (xizmatlarim), kredit va avans cheklar, chekni qaytarish, marketpleys cheklari, MXIK imtiyoz, marketpleys cheklarini tahrirlash, MXIK xato cheklar.



## Интерактив xizmatlar turlari:

Mazkur xizmat Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan «Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rmini qoplash tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasi o'rmini qoplash (qaytarish) uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qulay usulda ariza bilan murojaat qilishi uchun mo'ljallangan.



## Интерактив xizmatlar turlari:

Тадбиркорга қўмак берилган суратнома

Тадбиркорга қўмак берилган суратнома

9006

Тадбиркорлар учун

## Interaktiv xizmatlar turlari:

ЭРА қалыңларина  
руқсатга олинди



Elektron raqamli imzolarni olish uchun arizani elektron ko'rinishda yuborish imkoniyati yaratildi. Interaktiv xizmat yordamida yuborilgan arizalar asosida elektron raqamli imzo yaratiladi va murojatchi tayyor imzoni o'z shaxsini tasdiqlagan holda olib ketadi. Ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldi olinadi.



**E'TIBORINGIZ  
UCHUN RAHMAT**

## **MAVZULARGA OID TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR**

### **1-MAVZU: “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH (4-MODUL) YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI**

Yuridik shaxs, to‘lovlar, soliqlar, yig‘malar, soliqqa tortish, soliq tizimi, soliq to‘lovchilar, soliq xizmati, solikli va soliqsiz to‘lovlar, davlat budjeti, budget daromadlari, to‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, inflyatsiya, soliq agenti.

### **2-MAVZU: FOYDA SOLIG‘I**

Yuridik shaxslarning foydasi, foyda solig‘i, soliq to‘lovchilar tarkibi, rezident va nerezidentlar, foyda solig‘i stavkasi, foyda solig‘i obyekti, foyda solig‘i imtiyozlari, foyda solig‘i hisobotini taqdim etish muddatlari, foyda solig‘i summasini to‘lash muddatlari, jami daromadlar tarkibi, chegiriladigan xarajatlar, chegirilmaydigan xarajatlar, erkin almashtiriladigan valyuta, yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda, foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda.

### **3-MAVZU: AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ**

Kichik biznes, kichik biznes subyektlari, mikrofirmalar va kichik korxonalar, ixchamlashgan soliqqa tortish tizimi, yagona soliq, yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, qat‘iy soliq, aylanmadan olinadigan soliq, soliq stavkasi, yalpi tushum, yalpi daromad, soliq obyekti, daromadlarga tuzatish kiritish, soliq bazasi, REPO operatsiyalari, soliq imtiyozlari, preferentsiya, soliqni to‘lash muddatlari, soliq hisobotini taqdim etish muddatlari.

### **4-MAVZU: IJTIMOIIY SOLIQ**

Yagona ijtimoiy to‘lov, ijtimoiy soliq, soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalar va filiallari, soliq solish obyekti, xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlar, tadbirkorlik faoliyati va yakka tartibdagi mehnat faoliyati, soliq bazasi, soliq stavkalari, soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari, soliq davri, hisobot davri, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish, soliqni to‘lash tartibi.

## **5-MAVZU: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I**

Qo'shilgan qiymat tushunchasi, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq subyekti, soliq obyekt, soliq stavkasi, nollik stavka, soliq imtiyozlari, import tovarlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yuk deklaratsiyasi, hisobvara-q-fakturalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lash, qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, qo'shilgan qiymat solig'i summasini to'lash muddatlari.

## **6-MAVZU: AKSIZ SOLIG'I**

Aksiz solig'i, soliq to'lovchilari, soliq solish obyekt, aksiz solig'i stavkalari, import aksizosti tovarlari uchun aksiz solig'i, dal, aksiz markasi, aksiz solig'i hisobotini taqdim etish, aksiz solig'i summasini to'lash muddatlari.

## **7-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ**

Mol-mulk tarkibi, o'rtacha yillik qoldiq qiymat, o'rtacha yillik qiymat, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq obyekt, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasini to'lash muddatlari, qayta baholash, indeks, asosiy vosita, ko'chmas mulk.

## **8-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I**

Yer maydonlari, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yer maydonlari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i obyekt, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i to'lovchilari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i summasini to'lash muddatlari, ortiqcha yer uchastkalari.

## **9-MAVZU: SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

Suv resurslari, yer osti va yer usti suvlari, suv resurslaridan

foydalanganlik uchun soliq, soliq obykti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, suv uchun limit, suv hajmini hisoblash uchun asboblari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini to'lash muddatlari.

### **10-MAVZU: YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

Yer osti boyliklari, texnogen hosilalar, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq obykti, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi, bonuslar, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, royalti, rentals.

### **11-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YIG'IMLAR**

Yig'implar, chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imning soliq to'lovchilari, chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti yig'implarning soliq solish obykti, chet davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda va uning hududi orqali tranzit o'tayotganda soliq bazasi, yig'implarni to'lash muddatlari

### **12-MAVZU: SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Investitsiya, chet el investitsiyalari, to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari, ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar, soliqlar bo'yicha imtiyozlar, chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar, yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, erkin ayirboshlanadigan valyuta, yangi zamonaviy texnologik asbob-

uskuna, maxsus iqtisodiy zonalar, maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari, mahsulot taqsimotiga oid bitim, mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyat, soliq solishning alohida tartibiga ega O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlari, foyda solig‘i bo‘yicha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq

### **13-MAVZU: DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI TIZIMIDA YURIDIK SHAXSLARGA OID AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI**

Davlat soliq xizmati organlarida yuridik shaxslarga oid amaliyotda qo‘llanilayotgan dasturiy mahsullar, davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar, elektron hisobot, elektron hisobot shakli, elektron raqamli imzo (ERI), soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti, elektron hujjat, axborot vositachisi, hisobotni elektron hujjat shaklida taqdim etishda elektron hujjat aylanishi ishtirokchilari, soliq to‘lovchi tomonidan elektron hujjat shaklida hisobotlarni taqdim etish tartibi, hisobotni elektron hujjat shaklida saqlash muddati.

## TEST SAVOLLARI VARIANTLARI

### 1-MAVZU: “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH (4-MODUL) “YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

#### 1. Soliq – deganda...

- A. davlat budjetiga undiriluvchi majburiy to‘lovlar tushuniladi
- B. yuridik shaxslar tomonidan budjetga undiriladigan to‘lovlar tushuniladi
- C. Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi
- D. muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib beriladigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan pul to‘lovi tushuniladi

#### 2. Soliq stavkalarining turlarini aniqlang.

- A. To‘g‘ri, egri, resurs
- B. O‘sib boruvchi, bazaviy stavkalar, egri
- C. Praporsional, progressiv, regressiv
- D. Regressiv, qat‘iy bo‘lmagan, bazaviy stavkalar

#### 3. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

- A. Kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish
- B. To‘g‘ri va egri
- C. Bevosita va bilvosita
- D. To‘lov manbaida soliqqa tortish

#### 4. Soliq solish printsiplarini ko‘rsating.

- A. Oddiqlik va xolislik
- B. Majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi
- C. Tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash
- D. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish

#### 5. Qaysi javobda soliq elementlari keltirilgan?

- A. Soliq turlari

- B. Soliq agenti, soliq to'lovchi va soliq solish obyekti
- C. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to'lash tartibi
- D. Soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash va to'lash tartibi, soliq to'lovchi

**6. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimani anglatadi?**

- A. Soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag'larni tashkil qilishni
- B. Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini
- C. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini
- D. Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni

**7. "Fiskal" so'zining ma'nosi nima?**

- A. Foyda
- B. Soliq
- C. Xazina
- D. Daromad

**8. Resurs to'lovlariga qaysi soliqlar kiradi?**

- A. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, daromad solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq
- B. Yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- C. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- D. Foyda solig'i, aksiz solig'i

**9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

- A. 1991-yil 15-fevral
- B. 1997-yil 24-aprel
- C. 1997-yil 29-avgust
- D. 1993-yil 6-may



## 2-MAVZU: FOYDA SOLIG'I

### 1. Yuridik shaxsning jami daromadlari tarkibini ko'rsating?

- A. Realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to'lov (bo'nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar
- B. Konsessiya bitimi bo'yicha qonunchilikka muvofiq olingan mol-mulk
- C. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad
- D. Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovini (sug'urta summasi) tarzida olingan mablag'lar

### 2. Quyidagilardan qaysi biri soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi?

- A. REPO operatsiyalari bo'yicha daromad
- B. Moliyaviy ijara (lizing) obyektining qiymati o'rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining qismi tarzida qoplash
- C. Tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar)
- D. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad

### 3. 2023-yilda tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar qanday stavkada foyda solig'i to'laydi?

- A. 20 %
- B. 15 %
- C. 0 %
- D. 7,5 %

### 4. Hisobot davri yakunlari bo'yicha foyda solig'ining soliq hisoboti soliq organiga qanday muddatda taqdim etiladi?

- A. Ortib boruvchi yakun bilan hisobot davridan keyingi oyning 20 kundan kechiktirmay
- B. Ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 23-kundan kechiktirmay
- C. Ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kundan kechiktirmay
- D. Ortib boruvchi yakun bilan hisobot davridan keyingi oyning 10 kundan kechiktirmay

**5. Foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlar qanday muddatlarda to'lanadi?**

- A. Hisobot davri har bir oyining 10-kunidan kechiktirmay
- B. Hisobot davri har bir oyining 15-kunidan kechiktirmay
- C. Hisobot davri har bir oyining 20-kunidan kechiktirmay
- D. Hisobot davri har bir oyining 23-kunidan kechiktirmay

**6. Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- A. umidsiz qarzlar bo'yicha xarajatlar
- B. ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar
- C. soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar
- D. nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari

**7. Soliq davri yakunlari bo'yicha foyda solig'ini to'lash qanday muddatlardan kechiktirmay amalga oshiriladi?**

- A. Soliq davri o'tgandan keyingi yilning 10-yanvaridan kechiktirmay
- B. Soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay
- C. Soliq davri o'tgandan keyingi yilning 25-martidan kechiktirmay
- D. Soliq davri o'tgandan keyingi yilning fevralidan kechiktirmay

**8. Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda bir milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining 23-kunidan kechiktirmay to'laydi.**

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

**9. Foyda solig'ining har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.**

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

10. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar foyda solig‘ining soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

- A. To‘g‘ri
- B. Noto‘g‘ri

11. Qarzdor tomonidan e’tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar, penyalalar va boshqa sanksiyalar jami daromadlarga kiradi.

- A. To‘g‘ri
- B. Noto‘g‘ri

12. Xayriya yordami tarzida berilgan mablag‘lar, shu jumladan, metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar, foyda solig‘i bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga kiradi.

- A. To‘g‘ri
- B. Noto‘g‘ri

### 3-MAVZU: AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ

1. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari

B. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari

C. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir yarim milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari

D. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi ikki yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar

**2. Aylanmadan olinadigan soliqning obykti ko'rsating.**

- A. Yalpi foyda
- B. Tushum
- C. Jami daromad
- D. Sof foyda

**3. 2023-yilda aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi necha foiz miqdorida belgilandi?**

- A. 25 foiz miqdorida
- B. 3 foiz miqdorida
- C. 1 foiz miqdorida
- D. 4 foiz miqdorida

**4. Tovarlarining (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliqning stavkasi 2023-yilda necha foiz miqdorida belgilandi?**

- A. 5 foiz miqdorida
- B. 4 foiz miqdorida
- C. 3 foiz miqdorida
- D. 2 foiz miqdorida

**5. Hisobot davri yakunlari bo'yicha aylanmadan olinadigan soliqning soliq hisoboti qaysi muddatlarda taqdim etiladi?**

- A. Hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay
- B. Hisobot davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay
- C. Hisobot davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay
- D. Hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay

**6. Soliq davri yakunlari bo'yicha aylanmadan olinadigan soliqning soliq hisoboti qaysi muddatlarda taqdim etiladi?**

- A. Soliq davridan keyingi davming 15 fevralidan kechiktirmay
- B. Soliq davridan keyingi davming 10 fevralidan kechiktirmay
- C. Soliq davridan keyingi davming 20 fevralidan kechiktirmay
- D. Soliq davridan keyingi davming 20 fevralidan kechiktirmay

**7. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?**

- A. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi
- B. Faqat ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to'laydilar
- C. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanadi
- D. Faqat ko'chma mulklari bo'yicha mol-mulk solig'ini to'laydilar

**8. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar quyidagi qaysi soliqlarni to'laydilar?**

- A. Foyda solig'i va QQS
- B. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
- C. Mol-mulk solig'i va aksiz solig'i
- D. Aksiz solig'i va QQS

**9. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi bo'lib ... hisoblanadi.**

- A. jami daromadi
- B. daromadi
- C. foydasi
- D. sof foydasi

**10. Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

A. soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslariga

B. soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi besh yuz million bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslariga

C. aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga

D. soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga

**11. Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

– soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

– benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga.

A. To‘g‘ri

B. Noto‘g‘ri

**12. Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (shu jumladan, joriy va kapital ta‘mirlash) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e‘tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.**

A. To‘g‘ri

B. Noto‘g‘ri

**13. Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo aylanmadan olinadigan soliqni solish obyekti deb e‘tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytiradi.**

A. To‘g‘ri

B. Noto‘g‘ri

**14. Aylanmadan olinadigan soliqni solish bazasini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlari hisobga olinmaydi.**

A. To‘g‘ri

B. Noto‘g‘ri

**15. Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliqni to'lashi shart.**

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

#### **4-MAVZU: IJTIMOIIY SOLIQ**

**1. Ijtimoiy soliqning soliq solish obyektini aniqlang.**

- A. Yalpi tushum
- B. Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari
- C. Yalpi daromad
- D. Tovaroborot

**2. Ijtimoiy soliq quyida ko'rsatilgan qaysi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi?**

- A. Ilmiy unvon va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlarga
- B. Tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlarga
- C. Predmeti ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lanadigan to'lovlarga
- D. Mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararining o'rmini qoplash belgilangan miqdorlardan ortiqcha olingan summalariga

**3. Ijtimoiy soliqni to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?**

- A. Faqat mikrofirma va kichik korxonalar
- B. O'zbekiston respublikasining yuridik shaxslari, o'zbekiston respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar
- C. Faqat fermer xo'jaliklari
- D. Faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar

**4. Ijtimoiy soliq bo'yicha hisobot davrini aniqlang.**

- A. O'n kun

- B. Bir chorak
- C. Bir oy
- D. Bir yil

**5. 2023-yilda ijtimoiy soliqning soliq stavkalarini aniqlang.**

- A. 5 %, 12 %
- B. 0 %, 15 %, 20 %
- C. 12 %, 25 %, 4,7 %, 7 %
- D. 0,28 %, 0,37 %, 0,49 %

**6. Budget tashkilotlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini aniqlang.**

- A. 4,7 %
- B. 7 %
- C. 12 %
- D. 25 %

**7. “SOS – O‘zbekiston Bolalar mahallalari” uyushmalari uchun ijtimoiy soliq stavkasini aniqlang.**

- A. 4,7 %
- B. 7 %
- C. 12 %
- D. 25 %

**8. Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini aniqlang.**

- A. 4,7 %
- B. 7 %
- C. 12 %
- D. 25 %

**9. Ijtimoiy soliqning soliq hisoboti soliq organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?**

- A. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay
- B. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- C. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan



kechiktirmay

D. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay

**10. Ijtimoiy soliqni to'lash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?**

A. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

B. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

C. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay

D. Har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

**11. Quyidagilar soliq solish obykti hisoblanmaydi:**

– ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rmini qoplash tarzidagi xarajatlari;

– paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar

A. To'g'ri

B. Noto'g'ri

**12. Soliq kodeksining 405-moddasiga muvofiq soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.**

A. To'g'ri

B. Noto'g'ri

**13. Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.**

A. To'g'ri

B. Noto'g'ri

**14. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining**

norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25-fevraliga qadar taqdim etiladi.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

15. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

#### 5-MAVZU: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish obyektini aniqlang.

- A. Muomala xarajatlari
- B. Soliq solinadigan aylanma va soliq solinadigan import
- C. Ishlab chiqarish tannarxi
- D. Sof foyda

2. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

A. Qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida

B. Qo'shilgan qiymat solig'ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida

C. Qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida

D. Qo'shilgan qiymat solig'ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida

3. 2023-yilda qo'shilgan qiymat solig'ini stavkasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. 1,5 %

- B. 15 %
- C. 20 %
- D. 12 %

**4. Tovarlarini import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan baza qanday aniqlanadi?**

A. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilgan shartnoma qiymatidan kelib chiqqan holda

B. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilgan qiymatidan kelib chiqqan holda

C. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda

D. Tovarlarining bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining, bojxona bojlarining summalari asosida

**5. Quyidagilarning qaysilari qo'shilgan qiymat solig'ida tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi?**

A. Mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish

B. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy mol-mulkni realizatsiya qilish

C. Yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga o'tkazish

D. Milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish

**6. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan?**

A. 1991-yil 15-fevralda

B. 1992-yil 1-yanvardan

C. 1995-yil 1-yanvardan

D. 1993-yil 6-maydan

**7. Quyidagilardan qaysi biri qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi?**

A. Tovarlarini (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar

- B. Tovarlarini (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar
- C. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari
- D. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar

**8. Soliq to‘lovchilar belgilangan tartibda ... qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.**

- A. mahalliy xokimiyat organlarida
- B. bojxona organlarida
- C. soliq organlarida
- D. moliya organlarida

**9. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?**

- A. Yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o‘tkazish
- B. Realizatsiya qilish joyi o‘zbekiston respublikasi bo‘lgan tovarlarini (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma
- C. Milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno)
- D. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish

**10. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?**

- A. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritgan holda
- B. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini kiritgan holda
- C. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi asosida
- D. Aksiz solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi

**11. Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qanday aniqlanadi?**

- A. Soliq solinadigan aylanma bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida
- B. Realizatsiya qilingan tovarlar, xizmatlarning qiymati asosida
- C. Soliq solinadigan jami aylanmaning miqdori asosida
- D. Realizatsiya qilingan tovarlar, xizmatlarning tannarxi asosida

**12. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari kimlar?**

- A. Tushumga ega bo'lgan yuridik shaxslar
- B. Faoliyatni o'zbekiston respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari
- C. Mikrofirma va kichik korxonalar
- D. Foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar

#### **6-MAVZU: AKSIZ SOLIG'I**

**1. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?**

- A. 1991-yil
- B. 1992-yil
- C. 1995-yil
- D. 1996-yil

**2. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga kiritiladimi?**

- A. Kiritiladi
- B. Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi
- C. Kiritilmaydi
- D. Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi

**3. O'zbekiston Respublikasida aksiz markalari qachon joriy etilgan?**

- A. 1992-yil 1-yanvar
- B. 1993-yil 6-may
- C. 1995-yil 1-yanvar
- D. 1996-yil 1-oktabr

- 4. Quyidagilarning qaysilari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:**
- A. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga
  - B. Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga
  - C. Berilgan xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga
  - D. Aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirishga

**5. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza qanday qiymatni o'z ichiga oladi?**

- A. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini
- B. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini
- C. Tovarlarning naturada ifodalangan hajmini
- D. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini

**6. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza nima asosida belgilanadi?**

- A. Tannarx asosida
- B. Bojxona qiymati asosida
- C. Bojxona qiymati va bojxona boji asosida
- D. Shartnomada ko'rsatilgan qiymat asosida

**7. 2023-yilda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i qanday miqdorda belgilandi?**

- A. 10 %
- B. 15 %
- C. 20 %
- D. 12 %

**8. Aksiz solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.**

- A. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay
- C. Joriy oyning 15, 25 kunidan va kelgusi oyning 5 kunidan kechiktirmay

D. Joriy oyning 13, 23 kunidan va kelgusi oyning 3 kunidan kechiktirmay

**9. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri aksiz solig'ini to'laydi?**

- A. Mebel ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar
- B. Ulgurji va chakana savdo korxonalari
- C. Alkagolli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar
- D. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari

**10. Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga ... taqdim etiladi.**

- A. har oyda, soliq davridan keyingi oyning 5 kunidan kechiktirmay
- B. har oyda, soliq davridan keyingi oyning 10 kunidan kechiktirmay
- C. har oyda, soliq davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay
- D. har oyda, soliq davridan keyingi oyning 20 kunidan kechiktirmay

**11. Aksiz solig'i solinadigan obyektlar quyidagilardan iborat:**

- aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

**12. Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallarning qiymatini o'z ichiga oladi.**

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

13. Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

14. Aksiz solig'i uchun bir oy soliq davridir.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

15. Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilinganda soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

- A. To'g'ri
- B. Noto'g'ri

## 7-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq solish bazasini aniqlang.

- A. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
- B. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati
- C. Asosiy vositalarning eskirish summasi
- D. Ko'chmas mulklarning o'rtacha yillik qoldiq (o'rtacha yillik qiymati) qiymati

2. 2023-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday stavkada undiriladi?

- A. 1,5 %
- B. 2 %
- C. 5 %
- D. 12 %



**3. Qurilishi normativ muddatlarda tugallanmagan obyektlarga nisbatan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday stavkada undiriladi.**

- A. 1,5 %
- B. 3 %
- C. 4 %
- D. 6 %

**4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning to'lovchilarini aniqlang.**

- A. O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chma mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar
- B. O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar
- C. O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari
- D. O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chma mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar

**5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) qanday tartibda aniqlanadi?**

- A. Hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtidan bir qismi sifatida
- B. Hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida
- C. Hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida
- D. Hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtidan bir qismi sifatida

**6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan budgetga qachon to'lanadi?**

- A. Har oyning 10-kunidan kechiktirmay
- B. Har oyning 20-kunidan kechiktirmay
- C. Yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay
- D. Yilning har choragi uchinchi oyining 20-kunidan kechiktirmay

**7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga qachon to'lanadi?**

- A. Har oyning 10-kunidan kechiktirmay, yanvar oyi uchun 20 yanvardan kechiktirmay
- B. Har oyning 20-kunidan kechiktirmay
- C. Yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay
- D. Yilning har choragi uchinchi oyining 20-kunidan kechiktirmay

**8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq hisoboti soliq organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?**

